

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA
O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
O`ZBEK FILOLOGIYASI KAFEDRASI

IV kurs kunduzgi bo`lim bitiruvchisi

NOILA ACHILOVA HAMROQULOVNANING

**O.YOQUBOV ROMANLARIDA SHAXS VA
JAMIYAT MUNOSABATLARI TALQINI**

mavzuidagi

*5120100 Filologiya va tillarni o`qitish (o`zbek tili) yo`nalishida bakalavr
darajasini olish uchun yozgan*

MALAKAVIY BITIRUV ISHI

(2013-2014 o`q uv yili)

Buxoro – 2014

MUNDARIJA

KIRISH.

I bob. TARIXIY HAQIQATNING BADIY TALQINI.

I.1. Odil Yoqubov ijodida tarixiy mavzuga murojaat.

I.2. Yozuvchi ijodida ijtimoiy ziddiyatlar ifodasi.

II bob. INSON VA JAMIYAT MUNOSABATLARINING BADIY TAHLILI.

II.1. Ijtimoiy muammolar va inson ruhiyati.

II.2. Ruhiyat tahlil imkoniyatlari

III bob. DAVR VA INSONIY MUNOSABATLARNING BADIY JONLANTIRILISHI.

III.1. O.Yoqubov romanlarida zamon va shaxs taqdirining badiiy asoslanishi.

III.2. Xarakter va ijtimoiy omillar masalasi.

XULOSA.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI.

KIRISH

Malakaviy bitiruv ishining dolzarbligi. O`zbek nasri taraqqiyotining darg`alaridan biri deb ta`kidlash mumkin bo`lgan ijodkor Odil Yoqubov o`zbek prozasiga XX asrning o`rtalarida kirib keldi. Ijodkor asarlarida insoniy munosabatlar, davr va shaxs taqdiri masalalari chuqur tahlil qilinadi. Adibni mushtariylarga iste`dodli yozuvchi sifatida tanitgan “Tengdoshlar” (1951)dan tortib to so`nggi asarlariga qadar yozuvchini ijtimoiy munosabatlarga qiziqish tark etmadi.

Dastlab adib ijodi haqida qisqacha gapirib o`tganda, shularni ta`qidlash mumkinki, u nasrning kichik janrlaridan tortib, yirik epik turga mansub asarlarida ham inson va jamiyat masalasini etakchi o`ringa qo`yganligining guvohi bo`lamiz. «Yurak yonmog`i kerak» (1958) va “Muqaddas” (1960) povestlari bilan yozuvchi davrimizning ijtimoiy yukini ko`targan qahramonlar xarakterlarini kashf etdi.

Yozuvchining 60-yillardagi ijodida birmuncha o`zgarish yuz berdi. Agar 50-yillardagi jamiyatga fidoyi qahramonlar obrazlari galereyasi yaratilgan bo`lsa, 60-yillarning boshlariga kelib uning asarlarida insoniy qadr-qimmat masalasi birinchi o`ringa ko`tarildi. Chunonchi, “Muqaddas, «Yurak yonmog`i kerak” singari asarlarda jamiyatdagi ayrim illatlar ochib tashlangan bo`lsa, “Larza” (1962) qissasiga kelib insoniy qadr-qimmatni himoya qilish bosh mavzuga aylandi. “Larza”dan boshlangan bu g`oyaviy yangilanish keyinchalik “Bir fel`eton qissasi”, “Qanot juft bo`ladi” asarlarida yanada yangilanib yuksakroq bosqichga ko`tarildi. Ana shu qissalar yozuvchini ruhiy olam bilimdoni sifatida kitobxonlarga tanitdi. “Er boshiga ish tushsa” (1966) romanida uch yosh yigitning fidoyiliklari misolida butun bir davrga daxldor bo`lgan zalvorli g`oya ochib berildi. Bu asarlarni ilmiy o`rganish bugungi kunda eng dolzarb hisoblangan insonning qadr-qimmati, baxt-saodati, farovon turmushi uchun kurashish kabi masalalar Odil Yoqubovni o`sha davrlardayoq o`ylantirganini, iztirobga solganini ko`rsatadi.

So`nggi yillarda yaratilgan “Ulug`bek xazinasi”, “Diyonat”, “Ko`hna dunyo”, “Oqqushlar, oppoq qushlar” singari romanlari Odil Yoqubovni ustozlar adiblar

qatoriga ko'tardi. Qirq yildan buyon yozuvchi tomonidan yaratilgan asarlar xalqimizning ma'naviy mulki bo'lib qoldi. Bu ma'naviy mulk haqida adabiy jamoatchilik ham, tanqidchilar ham juda ko'p fikrlar bayon qildi. U adabiyotshunoslikning tadqiq va tahlili ob'ektiga aylandi.

Zotan, Odil Yoqubovning ijodiy yo'li haqida gapirish o'zbek adabiyotning qirq yillik taraqqiyot tarixi haqida gapirish demakdir, desak yanglishmaymiz. SHu bois bo'lsa kerak, adib ijodi matbuot sahifalarida tez-tez tahlil qilinganliginnig guvohi bo'lish mumkin.¹ Uning ayrim asarlari H.Yoqubov, S.Mamajonov, O.Sharofiddinov, E.Karimov, U.Normatov, P.Shermuhmedov, N.Xudoyberganov, H.Umurov, O.Tog'ayev, A.Quljonov, M.Sultonova, A.Zunnunov, I.G'afurov, H.Karimov va boshqa adabiyotshunoslar tomonidan tadqiq qilindi.

Odil Yoqubov romanlarida jamiyat va inson munosabatlari talqini masalasi ijodkornnig roman janriga mansub asarlarida yanada yaqqol ko'rinadi va ijodkor badiiy kontseptsiyasini ifoda etishga yordam beradi.

Chunki uning rromanlarida qadimiy va umumbashariy muammolarning izlari mavjuddirki, bular yozuvchiga hayotiy manba bo'lib xizmat qiladi.

Malakaviy bitiruv ishining manbalari. Odil Yoqubovning «Ulug'bek xazinasini», «Oq qushlar, oppoq qushlar» romanlari bitiruv ishiga manba sifatida

¹ Қўшжонов М. Қалб ва қиёфа. Т: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1978.; Қўшжонов М.Хаёт ва маҳорат. Т: ЎзР бадий адабиёт нашриёти. 1962; Қўшжонов М. Қайта қуриш ва ўзбек романи // Шарқ юлдузи. 1988. 1-сон. 167-177-б.; Мамажонов С. Сайланма. Т: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1981; Шарофиддинов О. Истеъдод жилолари. Т.: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1976. ; Каримов Э. Ёзма адабиётнинг эпик жанрлари. // Адабиёт назарияси. 2-том. Т: 1979. 207-234-б.; Норматов У. Насримиз анъаналри. Т: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1978.; Шермухамедов П. Давр қаҳрамон тақдирида. Т: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1976.; Худойберганов Н. Умри узоқ бўлсин // Шарқ юлдузи. 1982. №1. 179-182-б.; Умуров Х. Ўзбек романчилигида бадий психологизм. Ўқитувчи. 1982.; Тоғаев О. Идрок ва ижод. Т: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1982.

tanlandi. Ayrim o`rinlarda adibning «Diyonat» romaniga ham murojaat qilinadi. Chunki ushbu asarlarda insonning qaltis vaziyatlardagi ahvoli, ular shaxsiga, kechmishiga davr, ijtimoiy muhitning ta`siri masalasi juda yorqin bo`yoqlarda aks ettirilgan. Aslida asarning mavzu doirasi xalq hayotining tarixiy burilish nuqtalariga bag`ishlanganligi bilan ajralib turadi. Chunki bunday pallalarda inson taqdirini jamiyat to`la ma`noda o`z o`zaniga oladi. Shaxsiy mayllar, istaklar va qarashlar jamiyat qarashlaridan ba`zan ustun kela olishi qiyin kechadi. Ammo vaqt - oliy haqam. Davrlar o`tib harbir irq ilingan harakatlarga tarix o`z adolatli bahosini berib ulguradi. Mirzo Ulug`bek taqdiri bunga yorqin misoldir.

Yozuvchinning «Oq qushlar, oppoq qushlar» romanida esa jamiyatning faqat yuqori tabaqalarida emas, balki quyi tabaqalari vakillari hayotida ham jiddiy o`zgarishlar sodir bo`lganligi, jamiyatning ayovsiz qoliplari shaxs taqdiriga kuchli ta`sir etishi mumkinligi masalasi ko`tarib chiqiladi.

Yozuvchi o`zining «Diyonat» romanida esa jamiyatdagi ijtimoiy bo`linishlar Normurod Shomurodov, Abror Shukurov, Soqijon Obidov, Latofat singarilar bilan bir qatorda Otaqo`zini Bekmurod Xolmurodov, Jamol Bo`riboyev, Vohid Mirobidov singarilar o`rtasidagi kurashlar misolida ochib beriladi.

Umuman, yozuvchinning deyarli barcha romanlarida aynan jamiyat va shaxs munosabatlari hamda uning inson ruhiy oamiga o`rsatgan ta`siri masalalari etakchi muammo sifatida tanlanganligining guvohi bo`lamiz.

Malakaviy bitiruv ishining maqsad va vazifalari. Odil Yoqubov ijodida aks etgan inson va uning jamiyatda tutgan o`rni, ijtimoiy muhitning kishi hayoti, ruhiyati, dunyoqarashiga ta`siri masalalarini oydinlashtirishdan iboratdir. Ushbu maqsadni amalga oshirish jarayonida quyidagi vazifalarni ado etish lozim topildi:

- Adib ijodi misolida tarixiy haqiqatnig badiiy talqini masalasini oydinlashtirish;

- Odil Yoqubov ijodida tarixiy mavzuga murojaat masalasi to`g`risida fikr yuritish;

- Yozuvchi asarlarida ijtimoiy ziddiyatlarning badiiy ifodasi masalasiga to'xtalish;
- inson va jamiyat munosabatlarining badiiy tahlili masalasini ijodkor asarlari misolida oydinlashtirish;
- Ijtimoiy muammolar va ularning inson ruhiyatiga ta'siri masalasi xususida bahs yuritish;
- ruhiyat tahlilining o'ziga xos qirralari va imkoniyatlari masalasini yozuvchi asarlari tahlili asosida ochib berish
- davr va insoniy munosabatlarning adib romanlarida badiiy jonlantirilishi haqida to'xtalish;
- O.Yoqubov romanlarida zamon va shaxs taqdirining badiiy asoslanishi to'g'risida muhokama yuritish;
- ijodkor yaratgan betakror xarakterlar va ular taqdirida ijtimoiy omillarning o'rni muammosini tadqiq etish.

Malakaviy bitiruv ishining yangiligi. Odil Yoqubov asarlari misolida davr va jamiyat munosabatlarining o'ta nozik qirrali va ular natijasida inson ruhiy olamida yuz beradigan o'zgarishlar masalasining aynan yozuvchi romanlari misolida o'rganilganligi ishnig ilmiy yangiligini ko'rsatadi. Qolaversa, ishda ushbu muammo adibning bir tarixiy mavzudan va bir zamonaviy mavzudan hikoya qiluvchi romanlari tanlandi. SHuning orqali jamiyat va inson munosabatlarining abadiy va umumbashariy muammo ekanligi ta'kidlandi.

Malakaviy bitiruv ishining metodologik asosi va tahlil usuli: adabiyotshunoslikning nazariy muammolariga bag'ishlangan nazariy tadqiqotlar hamda milliy istiqlol g'oyasi va mafkurasiga doir qarashlar ,va analiz metodi ishning metodologik asosi va tahlil usulini tashkil etadi.

Malakaviy bitiruv ishining tuzilishi: kirish, III bob (6 fasl), xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

I bob. TARIXIY HAQIQATNING BADIY TALQINI.

I.1. Odil Yoqubov ijodida tarixiy mavzuga murojaat.

Odil Yoqubov ijodida Mizo Ulug`bek davriga murojaat yangi mavzu edi. Adabiyot olamida “zamonaviy yozuvchi” bo`lib tanilgan, doimo zamonaviy mavzuda qalam tebratib kelgan adibimiz endi xayolan olis sahifalarini “sayr etish”ga tushdi, ko`pgina tarixiy hujjatlarni, Ulug`bek hayoti va davriga oid manbalarni o`rganib chiqdi, Ulug`bek to`plagan, yaratgan ulkan ma`noviy xazinaning taqdiriga aloqador fikrlarni qidirdi. Yozuvchi, avvalo, Ulug`bek kutubxonasining qismatidan bahs etuvchi bir sarguzasht qissa yaratmoqchi bo`lgan edi, bunday qissa bitildi ham, ammo muallifning undan ko`ngli to`lmadi, ijodiy ish davom etdi. Xayolda charx urgan fikrlar, gavdalangan obrazlar kengayib, to`lishib, jiddiy yirik asar shakliga kira boshladi, nihoyat, “Ulug`bek xazinası” nomi bilan atalgan roman maydonga keldi.

Ulug`bekning ilmiy xazinası taqdiri yozuvchi Odil Yoqubov ko`ngliga ana shunday istak bo`lib tushgan-u, uning badiiy ijod laboratoriyasi, ya`ni psixologiyasida roman shakliga solinishini talab qiladigan darajaga etilib borgan.

Psixologik tahlil prinsiplari o`zbek adabiyotshunosligida o`rganila boshlanganida ko`p vaqt bo`lgani yo`q. Bu vazifaga asosiy diqqat 60- yillardan boshlandi, deyish mumkin.

Bu fikrdagi ikki muhim nuqta omma psixologiyasi va muallif munosabatlari tushunchalari e`tiborga loyiq. Chunki omma munosabatlari konkret bir davr bilan bog`liq bo`lib, tarixiy sharoit va davr munosabatlarini yuzaga keltiradi.

Davr munosabatlari esa muallif psixologiyasiga ijodiy oziq beradi. Busiz badiiy ijod yo`q. Biz tahlil qilmoqchi bo`lgan “Ulug`bek hazinası” romanining yaratilishida ham ana shu ikki manbaning hal qiluvchi o`rni borligi ko`zga

tashlanib turadi. Mustabid tuzum hokimiyati yillarida davr yangiliklar yaratish bilan insoniyat yaratgan ma`naviy boyliklardan unumli foydalanishga ham keng yo`l ochib berolmadi.

Shaxs va jamiyat munosabatlari badiiy tasvirda o`ziga xos xususiyatlarni namoyon etar ekan, romanda voqeaning o`rnini va o`tadigan paytini aniq belgilab olishni taqozo etgan. Romanda Ulug`bek saltanatining oxirgi damlari tarzida, ya`ni qahramonlar harakat qiladigan vaqt birligi shaklida tanlanishi to`g`ri bo`lgan, chunki bu davr juda ham dahshatli tarixiy voqealar oqimi bilan bog`liq bo`lib, ta`sirdor va to`laqonli xarakterlar yaratish imkonini beradi.

Badiiy tasvirning o`ziga xosligi shundaki, Ulug`bekning umr bo`yi to`plagan boy kutubxonasini va jahonga mashhur rasadxonasini saqlab qolish uchun voqeaning asosi sifatida tanlanib, ana shu asos romanda psixologizmning analitik printsipini taqozo etgan.

Jahonshumul tarixiy siymolarning yubileyleri o`tkazilib, ardoqlandi. Davr psixologiyasidagi ana shu etakchi tendentsiya buyuk tarixiy shaxslar to`g`risida san`at asarlari yaratilishiga olib keldi. Bu haqiqat o`zbek adabiyotshunosligida “Ulug`bek xazinasi” romaninig yaratilish tarixi bilan bog`liq holda Umarali Normatov tomonidan “Nasrimiz an`analari” kitobida shunday ochildi:

“Demak, bu roman katta umuminsoniy mavzuga bag`ishlangan, unda ko`pchilikni hayajonga soladigan masala ko`tarilgan.

Badiiy ijod tarixida psixologizm o`zini bor salobati bilan roman janrida ro`y-rost ko`rsatdi. Zero, roman janrining g`oyaviy va badiiy tabiati psixolgizmni etakchi vosita sifatida shakllanishga olib keoldi. Ana shu g`oyaviy va badiiy uslub butun jahon romanchiligi taraqqiyotida o`ziga xos evolyutsion yo`lni bosib o`tdi.

Bu vositaning romanchilikdagi o`rnini, ahamiyatini va vazifasini tadqiq etish masalasi adabiyotshunoslikda bosh masalalardan hisoblanadi. Ayniqsa, adabiy tanqidchilikning rivoji uchun bu masalani o`rganishning ahamiyati beqiyosdir. Psixologizm muammosi jahon adabiyotshunosligida keng ishlanmoqda.

Xalq ijodiyoti salohiyatining ko`rinishi bo`lib, shu sarchashmadan bahramand bo`lgan har bir ijodkorning psixologiyasi u yo bu jihatdan muallifning o`zini ko`rsatadi, uning personajlari va keng ma`noda umuminsoniy psixologiyasi (sinflar, sotsial, tabaqalar, ijtimoiy guruhlar, zamonlar va hokazo)da, san`atkor shaxsiyati va u yaratgan qahramonlar obrazida o`z aksini topadi.

Badiiy adabiyotda tarixiy davrlarning turli qatlamlaridan va adabiy yo`nalishlaridan biz har tomonlama muallif, qahramonlar va omma psixologiyasi xususida haqqoniy tushunchaga ega bo`lishimiz mumkin.

Nihoyat, shaxs va jamiyat munosabatlari ongli va asosiy estetik printsiplari sifatida mavjuddir.

“Ko`z ilg`amas mayda bir dona kabi, san`atkorning ko`ngliga bir fikr tushadiyu, ana shu barakatli va serhosil zamindan hurkirab chiqib, barq urib o`sa boshlaydi-da, go`zalligi va hayoti mukammal bir shakl va obrazlarga kiradi; so`ngra butunlay alohida, yaxlit va o`ziga biqiq bir olam bo`lib maydonga chiqadi, bu olamda ayrim-ayrim qismlarning hammasi bir butunga mos bo`lib tushadi hamda har bir qism o`ziga mustaqil bo`lgan o`z-o`zida biqingan bir obraz bo`lgani holda, ayni zamonda bir butun narsaning zaruriy qismi bo`lib ham yashaydi va to`liq taassurot hosil qilishga yordam beradi”.

SHunday qilib, bugungi kunda adabiyotshunoslik fanida psixologik tahlilning dinamik, tipologik, analitik, sintetik va ichdan ko`rsatish kabi printsiplari u yoki bu darajada psixologizm masalalarini yoritishda qo`llanilmoqda. Bu asarda yozuvchi “mukammal shakl va obrazlarga” kiritadigan fikrning ruhiy psixologiyasi tamomila zabt etib bo`lgan. Natijada Ulug`bek xazinasida yozuvchi qarashlarida “butunlay alohida, yaxlit va o`zicha biqiq bir olam bo`lib” shakllana boshlagan.

Agar romanning dastlabki qatlamlarini sinchiklab o`qiy boshlasak, yozuvchi psixologiyasida shakllana boshlagan fikrning goh psixologik peyzaj tasvirida, goh Ali Qushchining qalblarini titratib yuboradigan ruhiy iztiroblari orqali quyuqlashtira borganligiga duch kelamiz. Roman Ulug`bek

davrining taraqqiyotidagi toj-taxt talashlari jarayonidagi siyosiy ziddiyatlarning, shuningdek, tarixiy qarama-qarshilikni tug'diruvchi turmush ziddiyatlarining analitik tahlili orqali Ulug`bek siymosini yaratishga qaratilgan.

Roman konkret tarixiy haqiqat asosida yozilgan. Buyuk alloma Ulug`bek xazinasini – u yiqqan, yaratgan jamiki kitobalarning, tillarda doston bo`lib qolgan mashhur kutubxonaning taqdiri muammosi ko`pdan beri ilmiy jamoatchilikni qiziqtirib keladi. Yodda bo`lsa kerak, bir necha yil burun “Pravda Vostoka” gazetasi shu xususda bahs ochgan, bu bahs hatto ulkan tadqiqotchi Irakliy Andronikov e`tiborini o`ziga tortgan edi. Bu bahsda ilgari surilgan, xususan, I.Andronikov maqolasiga o`rtaga qo`yilgan fikr va mulohazalar ko`plar qatori yozuvchi Odil Yoqubovda ham katta qiziqish uyg`otdi.

Umarali Normatov “Ulug`bek xazinasini” romanining yaratilishida davr psixologiyasining, davr ma`naviy ehtiyojining yozuvchiga tinchlik bermagani, unga ishlashga mayl uyg`otadigan, obrazlarda gavdalantirishni talab qiladigan g`oya berganligini juda yaxshi dalillagan. Shu g`oya, ya`ni Ulug`bekning ilmiy xazinasini taqdiri romanning mavzusi tarzida yozuvchi psixologiyasida shiddat bilan shakllana boshlagan.

Butun roman ana shu g`oyadan o`sib chiqqan. Aytish mumkinki, davr munosabatlari bilan yozuvchi va shaxs, jamiyat munosabatlari ijodiy uchrashgan nuqtadagina g`oyaviy nur – psixologik vaziyat paydo bo`ladi. Buni jahonga mashhur adabiyotshunoslar ham tan olgan:

Biroq, unda xazina va xazinador Ali Qushchi g`oya va shakl taqozosiga ko`ra markaziy o`rinni ishg`ol qiladi. Shu xazina atrofida bo`layotgan voqealar, hatto romanning bosh qahramoni Ulug`bek ruhiy olami ham Ali Qushchi nigohi orqali baholanadi:

“Qo`lida usturlab, samoni kuzatib uzoq o`tirdi, so`ng, marmar zinaning tik pillapoyalaridan horg`in odimlab, uchinchi oshiyondagi kutubxonaga o`tdi. Chehrasi so`lg`in, xayoli parishon, naqshinkor javonlarga terilgan kitoblarni, salkam qirq yil saltanat tebratib yiqqan nodir qo`lyozmalarini bir-bir ko`zdan

kechirdi, yodiga Qozizoda Rumiylar tushdi, chamasi, uning “Riyoziyot”ini varaqlab, uzoq turdi, keyin bo`ynini xam qilganicha lom-lim demay bir – bir bosib chiqib ketdi. U hatto Ali Qushchi bilan xayrlashmadi ham. A`lohazratlarini hovliga kuzatib chiqqan Ali Qushchiga ustod go`yo rasadxona bilan vidolashgani kelganday tuyulib, yuragi zirqirab ketdi. Ikki kungacha ustodning mahzun nigohi ko`z oldidan iztirob chekdi, bir necha bor Ko`ksaroyga borishga chog`landi, lekin jur`at etolmadi. Mana endi ustod o`zi uni Ko`ksaroyga chorlabdilar”.

Muallif asar personajlaridan birining nuqtai nazaridan turib ikkinchi bir personaj kechinmalari, hatti-harakatlarini baholash bilan davrga va uning kishilari ruhiy olamiga chuqurroq kirib boradi va o`ziga xos ko`p qatlamli psixologik tahlil orqali shu kichik tasvirga so`nggi bir ikki yil ichidagi tarixiy voqealarning quyushtirilgan tasvirini singdirib yuboradi.

U tarixiy vaziyatning chigallashuvida Gavharshodbeginning rolini ham nazardan chetda qoldirmaydi. Jamiyat va shaxs munosabatlarida Ulug`bek yashagan davrning butun murakkabliklari umumshtirilgan. Dorussaltanatdagi mana shunday murakkab vaziyat shoh Ulug`bekning ruhiyatiga ta`sir qilmasdan qolmaydi. Shunga qaramay, shohning olim sifatida sabot bilan ish olib borishi uning ruhiyati sobitligidan dalolat beradi.

Agar bordiyu, romandan tarixiy taraqqiyot haqidagi yuqoridagi tuyg`ular tafsiloti, umuman betinim o`zgarib turuvchi Ulug`bekning xayolot dunyosi chiqarilib tashlansa, psixologik iztiroblarsiz romaning g`oyaviy salmog`i o`z-o`zidan badiiy shakl mukammalligini yo`qotadi.

Ulug`bekning tarixiy taraqqiyot to`g`risidagi kechinmalar tug`yoni bosh qahramonni ilm-ma`rifat yo`lidagi zahmatkashligini asoslaydi. O`z davrini yaxshi biladigan donishmand tarzida yaratilgan Ulug`bekning ma`naviy xazina yo`lida sarf etgan boyliklariyu, xalq uchun qurdirgan hammomlari, obodonchilik ishlari uni boshqa shoh va fotihlardan ajratib turuvchi tarixiy haqiqat sifatida romanga olib kiriladi.

Yozuvchining individualligi shundaki, u psixologizmning analitik printsipini ongli ravishda etakchi badiiy printsip darajasiga ko'taradi.

Majoziy xazina uchun kurash ketar ekan, ustoz bilan shogird uchrashtiriladi. Ali Qushchi psixologiyasi sirli xayoliy bo'yoqlarda jonlanadi. Yozuvchi uni alohida bir mehr bilan yaratadi. Mirzo Ulug'bek uni Ko'ksaroyga taklif etar ekan: "o'g'lim" deb murojaat qiladi. Ma'naviy ustozga shogirdining farzand tarzidagi sadoqati roman sahifalarini nur bilan to'ldirib yuboradi.

Odil Yoqubov ma'naviy farzandning nigohi orqali ustozning ruhiy olamiga kirib boradi.

Yozuvchi zamon tarixiy taraqqiyotida yuz berayotgan fojeali onlarning yaqinlashib qolganini ruhiy olamining psixologik portret ifodasida jonlantira olgan. Odil Yoqubov bosh qahramonni ikki tarixiy qiynoq girdobidan olib o'tadi. Birinchisi, toju taxtdan ajralish fojeasi bo'lsa, ikkinchisi, o'zi yartagan ma'naviy xazinani barbod berish qiynog'i.

Yozuvchi o'z qahramonining fikrlar va hislar oqimini ifodalar ekan, shu orqali analitik printsip mag'zi bo'lmish xarakter tasvirining ichki va tashqi tomonlari yaxlitligiga erishadi.

Davr materiallarini tanlab olish orqali Ulug'bek davriga xos bo'lgan tarixiy taraqqiyotga baho berish va turmush voqea-hodisalari ustidan hukm chiqarish yozuvchi psixologizmining o'ziga xos qirralari bo'lib, kitobxonlarni o'ziga tortib ketish qudrati bilan yo'g'rilgan. U o'tmishni qayta jonlantiradi. Ikkita salobatli inson – ustoz Ulug'bek va shogirdi Ali Qushchi obrazlarini ma'naviy musobaqaga kirishgan holatda tasvirlaydi va shu yo'l tarixiy taraqqiyotni chuqur tushunish va undan asosiy halqalarni ajrata bilish jihatidan obrazlarning farqli qirralarini chizib bera boshlaydi.

Bunday tasvir psixologizmning "ongli va estetik prinsip" sifatidagi fazilatlarini tushunishimizga yordam beradi. Ham olim, ham ustoz, ham shoh bo'lgan Mirzo Ulug'bek o'z shogirdi Ali Qushchiga suyanadi.

I.2. Yozuvchi ijodida ijtimoiy ziddiyatlar ifodasi.

Odil Yoqubov tarix taraqqiyotini, shohlarning tashvish to'la fojeali qismatini chuqur idrok eta oladigan Mirzo Ulug'bekning badiiy etuk obrazini yaratishga erishadi. Ustoz va shogirdning ma'naviy musohabalarida saltanatdan ayrilishdan qo'rqmaydigan jasur tarixiy shaxsning o'z davriga xos iztiroblari ishonarli tarzda ochib berilgan. Bu tarixiy shaxsning o'z eliga qirq yil shohlik qilgan shu davr ichida bunyod qilgan madrasa, rasadxona kabi ilm xazinalarining xarob bo'lishidan qo'rqish hissining psixologik tahlili asarga joziba bag'ishlaydi.

Ulug'bek ruhiyatidan ana shunday javohirlarni topish, ya'ni tarixiy taraqqiyotni psixologik tahlildan tortib uning ustidan hukm chiqarish obrazning salobatini yanada oshiradi. Bosh qahramoning tarixiy taraqqiyotni tushunish va kelajak avlodlar oldidagi javobgarligi hissiyoti shu qadar yorqin ochilganki, unda yozuvchi mahorati, badiiy obraz yaratishdagi uslubiy o'ziga xoslik ko'zga tashlanib turadi.

Shoh va olimning bu iztiroblari ostida tarixiy davr ma'naviyatining shafqatsiz realliklari yotadi. Ana shu reallik bilan kishi individualligi o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni, tarix va taraqqiyotining psixologik tahlili o'zbek romanchiligida faqatgina Odil Yoqubov ijodiga daxldor emas. Zotan, 30-yillardayoq ustoz qalamkashlar A.Qahxor va Oybek tarix taraqqiyotining mehnatkash xalq ruhiyatidagi tub o'zgarishlarni o'lchov qilib etuk san'at asarlari yaratgan edilar.

Odil Yoqubov "Ulug'bek xazinasi" romanini yaratishga kirishar ekan, yuqoridagi ikki ustoz saboqlaridan ta'lim oldi. Psixologik tahlil sirlarini o'rgandi. O'z bosh qahramoni Ulug'bek ruhiyatini chizishda analitik tasvirni ongli estetik psixologik prinsip darajasiga ko'tarib, undan yangicha g'oya, yangi turmush materiallari va xarakterlarini badiiy talqin qilishda unumli foydalandi.

Ulug'bek eng avvalo, shoh, biroq, shu bilan barobar jahonshumul olim. Shohlik – maqsad emas, balki olimlik uchun bir vositadir. Bu buyuk zot tarix

taraqqiyotini o'z zamonasidagi mutafakkirlarga nisbatan chuqurroq idrok etadi. Uning siymosidagi mana shu muhim qirralar Ulug'bek xarakterini yaratishda asosiy omil bo'ladi. Chunki u o'tkinchi shohlikka emas, balki umrboqiy ilm-ma'rifatga o'zining butun umrini baxshida etadi. Ulug'bek shaxsining ana shu mohiyati, umuminsoniy mezonlarga daxldorlik, bir so'z bilan aytganda, mazmun boyligi shakliy yetuklikni talab qiladi. Bu zaruratni to'liq his qilgan muallif o'z romanini yaratishda psixologizmning analitik printsipiga murojaat qilgan.

Ulug'bek siymosini mudhish tarixiy muhit fonida yaratish, uni so'ngsiz qiynoqlar girdobidan olib o'tish orqali ruhiyatini yorqin tasvirlash, yozuvchining bosh ijodiy prinsipidir. Shu prinsipga asosan o'g'ilni otaga qarshi qilich ko'tarishga undagan tarixiy muhitning murakkab tomonlari birin-ketin ochila boradi. SHaxslarning muhitdagi o'rni va roli shahzodalar, amir-amaldorlar, ruhoniylarning bir-biriga bo'lgan munosabatlari orqali ochib beriladi.

Abdulatif riyokorlik ko'rsatib taxtni egallashga intiladi. Bu tarixiy taraqqiyot haqiqat goh Ulug'bek, goh Ali Qushchi ruhiy olami orqali ochila boradi. Yozuvchining mahorati shundaki, o'tkir psixologik vaziyat yaratib, psixologik portret chizib ifodalanayotgan psixologik ma'noni sahifama-sahifa kuchaytira boradi.

O'z farzandlaridan ilm-ma'rifatga moyillik topmagan Ulug'bek shogirdi Ali Qushchiga suyanadi, uni o'zini iztiroblarga solayotgan beadam tashvishdan ogoh qiladi.

Davrning ilm-fanga beshafqatligi, hokimiyat tepasiga qora kuchlarning kelib qolish ehtimoli reallikka aylana borishi ikki buyuk zot – Ulug'bek va Ali Qushchi tafakkuri g'alviridan o'tkaziladi, baho beriladi. Ulug'bek o'z xazinasini saqlab qolish mas'uliyatini Ali Qushchiga topshiradi.

Hozir ilmiy jamaotchilik tomonidan Ulug'bek xazinasini va kitoblari solingan po'lat sandiqlar aniqlangan. Ali Qushchining kichkinagina bir sandiq yasatgani unga "Ziji Ko'ragoniy"ni solib Istambulga eltib nashr qildirgani tarixiy haqiqatdir. Romandagi badiiy to'qimaga ana shu tarixiy asos bo'lgani ehtimoldan xoli emas.

Asosiy gap kitoblar xazinasini va sandiqlar xususida emas, bu bir vosita xolos, maqsad tarixiy taraqqiyotda shohlikning o'tkinchi, ma'naviy xazinaning esa umrboqiyatini ochib berishdir.

Butun romanning psixologik tasviri ana shunga qaratilgan. Ulug'bek ichki dunyosining ruhiy kechinmalari jarayoni, bu jarayonning betinim o'zgaruvchanligi fikrlar va kechinmalarda tarixiy taraqqiyotning baholanishi psixologik tahlilning rivojini va o'suvchanligini ta'minlaydi. Bunday o'suvchanlikni ta'minlashda tarixiy xotiro muhim o'rin tutadi. Ulug'bekning yodiga markazlashgan imperiya tuzgan Amir Temurning quyidagi o'g'itlari tushadi.

“ – Bu amirlarga ishonma, o'g'lim. Ularni sodiq bo'lsin desang, qilichingni ilgingda mahkam ushla!” – degandi.

Bu aqidaga amal qilgan Ulug'bek qirq yil xalqparvar hukmdor bo'lganligini xayolan tasavvur qiladi. Badiiy tasvirdagi psixologik oqim Ulug'bekni toju taxt uchun qonli to'qnashuvlarda yuz bergan darvesh bilan uchrashuvi tomon olib ketadi.

Ulug'bek temuriylar saltanatining inqirozini chuqur idrok etar ekan, o'zi boshliq bo'lgan amir-amaldorlarning talonchiligini ruhiy kechinmalari vositasida baholab, fikri tarixiy vaziyatga ta'sir o'tkazgan kuchlar ustiga kelib to'xtaydi.

«Ulug'bek xazinasini» romanida ijodkor shoh va olim Ulug'bekni o'ziga toldiruvchi, don qotiruvchi muammolra qarshisiga tushirib qoldiradi. Bu albatta, buyuk astornom yashagan davr, muhit va atrofidagi turli xil xarakterdagi odamlarning ta'siri bilan bog'liq edi. Yozuvchi Ulug'bek yuragini larzaga solgan tashvishli, tug'yonli o'ylar, fojeali hikoyatlar tasvirida uni gallyutsinatsiya holatiga keltirib qo'yadi. O'tmish podsholarining taqdirini o'z taqdiri bilan qiyoslaydi.

Asarda keltirilgan hikoyat bilan davr realligi qahramonning ruhiy jarayonidagi betinim o'zgarishlar bilan qorishib, uni goh real voqelikka, goh o'tmish xotiralariga, ba'zida taqdirdan bashorat qiluvchi yomon tushlarga tomon yetaklab ketaveradi.

Qabr ustida turgan Ulug`bekning bobosi Amir Temur asarda ilgari surilgan shohlik o`tkinchidir degan g`oyaning badiiy-ramziy obrazi sifatida gavdalanadi va psixologizmning analitik printsipidagi eng qimmatli tomonlaridan biri – tarixiy xaqiqatning baholash, hukm chiqarishda o`ziga xos vosita bo`lib qoladigan Ulug`bek davriga xos turmush manzaralari davr psixologiyasining eng muhim tomonlarini o`ziga jo qiladi.

Yozuvchi psixologiyasidagi ana shu hukm Mirzo Ulug`bek siymosini obyektiv chizishga olib keladi. Mirzo Ulug`bek bobosi Temurning podshoh sifatidagi ishlarini vaqti-vaqti bilan xotirlar ekan, o`zi bilan buyuk jahongirni bevosita muqoyasa qiladi.

Psixologik tahlil ayni shu o`rinlarda Amir Temurning qattiqqo`lligini, o`z poytaxtini obod qilishdagi shafqatsizligini, dunyoga dovuq solgan shuhratini obyektiv baholash mezoniga aylanadi. To “Ulug`bek xazinasini”ga qadar, aniqrog`i, romanda Ulug`bek ruhiy olamining chizilishiga qadar Amir Temur to`g`risidagi tarixiy haqiqat badiiy ijodga bu darajada butun salobati bilan olib kirilmagan edi. Lekin yozuvchining maqsadi Amir Temur faoliyatiga obyektiv baho berishdangina iborat emas. Balki mana shu ulug` sarkardaning vorislaridan biri bo`lmish Ulug`bekning badiiy obrazini bobosi Amir Temurga qiyosan tasvirlash orqali mazkur obarzning va ayni chog`da o`sha davrning aniq suratini chizish yozuvchining diqqat markazida turgan.

Darhaqiqat, biz romanda bosh tasvir prinsipiga aylangan analitik psixologizm salmog`ini tekshirar ekanmiz, fikrlar va kechinmalar oquvchanligiga jo qilingan Ulug`bek davrini ko`ramiz.

Bu davr – tarixda haqqoniy bo`lib o`tgani singari toju taxt uchun qonli to`qnashuvlar, elu yurtning tobora xaroblashuvi, insonlarning shohlik saltanatidan bezishi manzaralarining aynan jonlantirilishi bilan xarakterlanadi.

Yozuvchi bosh qahramon obrazini yaratar ekan, analitik psixologizmning eng ta`sirchan shakli bo`lgan xotiraga o`rni-o`rni bilan murojaat qilaveradi. Davr

qiynab qo`yganda Ulug`bek olam chigalliklaridan qutulishini o`ylar ekan, uning xotirasiga buyuk Temurning tarixiy xizmatlari bevosita kirib kela boshlaydi.

O`ziga urush e`lon qilgan farzandiga qarshi lashkar tortib borar ekan, bobosining butun jahonga ko`z-ko`z qiluglik zahmatli mehnatlari to`g`risida ancha o`yga toladi.

Ulug`bek tushib qolgan chigal tarixiy muhit uni ana shunday o`y-xayol, psixologik xotiralar girdobiga tortib ketishi badiiy haqiqatga mos tushadi. Yozuvchi his-tug`ular tafsilotini davr voqeligi bilan uyg`un holda tasvirlaydi, davr va shaxs bog`liqligini e`tibordan soqit qilmaydi. Chunki o`y-xayollar ham, uzoq o`tmish ham turmushda nimadir qilishga turtki bo`lishi mumkin.

Romanda Mirzo Ulug`bek tarixiy vaziyatni jiddiy baholay oladigan buyuk mutafakkir sifatida talqin qilinadi. U har qanday og`ir vaziyatda ham rostgo`y, mard, tadbirkor hukmdorligini ko`rsata oladi. Romanda obrazlar to`qnashuvidagi holat Ulug`bekning qat`iyatlilik va dovyurakligidan dalolat beradi.

Butun tarixni, o`z podsholik tarixini, tahlildan o`tkaza borgan bu mutafakkirning salobati sahifadan-sahifaga tomon o`sa boradi. Tarixiy vaziyatning Abdulatif foydasiga hal bo`layotganida kichik shahzoda Abdulazizning mudhish o`rni bor ekanligini Ulug`bek chuqur idrok etadi. O`z padariga qasd qilgan o`g`li haqidagi o`ylar uni xotirotlar girdobiga tortadi:

“E voh! Mirzo Ulug`bek bu o`g`lini nechundir bolaligidan suymadi. O`g`lim, deganda yuragi sira “jiz” etmadi. Qalbida bir mehr uyg`onmadi... shahzoda tug`ilibdiki, uzoq Hirotda, volidai mehriboni Gavharshodbegim tarbiyasida bo`ldi.

Ulug`bek Abdulatifga qarshi qo`shin tortib borar ekan, eng avvalo, amirlarning tarixiy vaziyat to`g`risidagi fikrlarini bilgisi keladi. U iztirobli xayollar og`ishiga beriladi. Har bitta amaldorni sinchiklab kuzatadi. Sotqinlik yo`liga kirgan amaldorlar uning qarshisida tang ahvolga tushib qoladilar. Romanda tasvirlangan bu xildagi turmush haqiqati bosh qahramonning har qanday chigal vaziyatda ham insoniyligini saqlab qolish fazilatini namoyon qiladi.

Uning ruhiy olami tarixiy taraqqiyotdagi ziddiyat Abdullatif foydasiga hal bo'layotganining sabablarini teranlik bilan ilg'ashini tasvirlash orqali ochila boshlaydi. Ulug'bek xotirotlar girdobida vaziyatni donolarga xos tarzda idrok eta boradi. Saltanatning qo'lda mahkam tutilishi uchun amir-amaldorlarning sodiqligi zarurligini u tarixiy saboqlardan yaxshi biladi.

Shu boisdan ham chanoqiy chaqiradi. Bu harbiy kengash maslahatida chuqur va inkor etib bo'lmaydigan psixologik ma'no hukmronlik qiladi. Kengash bir bahonayu, ana shu bahona vositasida mutafakkir lashkarboshi Ulug'bek psixologik vaziyatni tekshirib ko'rmoqchi bo'ladi.

Noxush xabarni o'z sarkardalariga etkazish bilan vaziyatning tangligini ochiq-oydin bayon etadi. Ulug'bek o'z odamlarining mag'lub bo'lganini ruhiy iztirob bilan aytadi. Psixologizmning ruhiy peyzaj, ruhiy xotira, gallyutsinatsion holat, tush ko'rish hamda psixologik portret singari badiiy yashash shakllari tasvirni quqlashtira borib, psixologik ma'noni kuchaytira boradi.

“ – Bu talofotning sababi shukim, biz ishongan lashkarboshilar mislsiz razolatga borib, shahzoda tarafiga qochib o'tmishlar... Bu mash'um xabarni aytmoqdan yana bir muddao shukim, kimki yuragida shubha va qo'rquv sezsa... jang – jadalni kutmay shahzoda tarafiga o'tsin! Billoh, bergan tuz-nonim, in'om qilgan oliy martabalarimga roziman! Hech kimdan sas chiqmadi”.

Bu o'rinda psixologik ma'no tarixiy haqiqat tarozisiga solib o'lchanadi. Shu haqiqat ayon bo'ladiki, hech bir amaldor o'z sotqinligini va xoinligini ko'pchilik oldida oshkor qilishga botinmaydi. Saroy ahllarining bu qadar sukut saqlab o'tirishlarida chuqur ruhiy ramzlar bor. Negaki, mana shu saroyda ulamolarning fikrlarida boshqa-boshqa niyatlar yashiringan.

Ulug'bek katta jang oldidan ularni bekorga o'z qarorgohiga chorlamadi. Bir vaqtlar Ulug'bekka sodiq qolgan navkarlar xiyonat yo'lini tutdilar.

Ulug'bek mana shunday xiyontaning sodir bo'lishidan xavotirda. Qarorgohdagi sukunat ham Ulug'bek ishongan sipohlarning jur'atsizligini namoyon qilib turibdi.

Biroq, sinchkov lashkarboshi xoinlik qilish belgilari mavjud boʻlgan amir Jondor, amir Iskandar Barloslarni ruhiy munozaraga tortib haqiqatni oydinlashtirmoqchi boʻladi. Lekin oʻta quv va firibgar bu lashkarboshilar dilidagini tiliga chiqarmaydilar.

Vaziyat shu darajada chigallashadiki, hech bir lashkarboshidan durustroq masalihat chiqmaydi. Barcha fojeali sukut saqlaydi. Ana shu fojeali sukut vaziyatning ogʻirligi alomati tarzida tasvirga olib kiriladi. Ulugʻbek bu chigal va ogʻir holatdan oʻzining tadbirkorligi bilan chiqib ketishga intilib lashkarboshilarga saltanatni saqlab qolish uchun jangga tayyorgarlik koʻrishni buyuradi.

Gavharshodbegim uni oʻz qoʻlida, Hirot saroyida tarbiya qildi, voyaga yetkazdi. Lekin... hazar, alhazar! Bobosi SHohruh Mirzo vafotidan soʻng shahzoda Alouvdavlo bilan toju taxt talashgan Abdulatif enagasi Gavharshodbegimni qoʻlga tushirib hibs ettirdi.

Mirzo Ulugʻbek buni eshitib sochlari tikka boʻlib ketgan edi. Lekin oʻz pushti kamaridan boʻlgan farzandi ekan, shahzoda Alouddavlo Abdullatifni asir olib, Ixtiyoriddin qalʼasiga hisb etganda chidab turolmadi, qoʻshin tortib Xurosonga bordi... Nechun oʻshanda Mirzo Ulugʻbek unga boʻlishdi? Nechun Balxni unga inʼom etdi?

Mirzo Ulugʻbek alamli dud koʻksini oʻrtab yuborayotganday, uff tortdi-da, boshini koʻtardi”

Xullas, «Ulugʻbek xazinasi» romanida inson kechmishi, uning tuygʻulari, orzu-intilishlari tarixy haqiqatlar misolida qayta badiiy jonlantirilib beriladi.

II bob. INSON VA JAMIYAT MUNOSABATLARINING BADIY TAHLILI.

II.1. Ijtimoiy muammolar va inson ruhiyati.

Romanda psixologizmning xotira shakli tez-tez qo'llanilib turiladi. Bu esa asarni qahramon ichki dunyosini tasvirlashda, o'ziga xos tadqiqot usuli bilan boyitadi. Ulug'bek xayolga berilar ekan, o'z mushohadasida bo'lib o'tgan tarixiy voqealarni tahlil qiladi. Tafakkur elagidan o'tkazadi. Yo'l qo'ygan xatolarini aniqlaydi.

O'tmishdan saboqlar olishga intiladi. Xayolida bobosi Amir Temur jonlanadi. Xullas, psixologizmning analitik prinsipini qo'llash muallifga so'ngsiz xayol yordamida butun tarixni keng qamrab olish imkoniyatini beradi. Ulug'bek umri xronologiyasining qamrab olinishi ziyo tarqatuvchi inson qalbining kashf etilishiga olib kelgan.

Analitik tasvir assotsiativ syujet yaratishga imkon yaratadi. Ulug'bek obraziga "yuklangan" g'oya ana shunday chatishma syujet imkoniyatlaridan to'liq foylanaishni taqozo etadi.

Romanda Ulug'bek hayotining so'ngi yillarida Abdullatifning jang bilan taxtni tortib olib, o'z padarini qatl etishi xronikal syujet chizig'ini, ya'ni voqealar tafsilotidagi ketma-ketlikni ta'minlagan bo'lsa, psixologizmning xayol, xotira, tush, o'y singari shakllari retrospektiv, ya'ni orqaga qaytib hikoya qilish usulini yuzaga keltirgan. Har ikkala syujet usuli o'zaro badiiy tadqiqot syujet chizig'ida birlashib ketadilar. Romanda tasvirga kiritilgan har bir tarixiy voqea tahlildan o'tkazilib, albatta xulosaviy hukmga olib kelinadi. Ana shu jarayonda Ulug'bekning obyektiv holati tarixiy vaziyatdagi o'rni, erishgan yutuqlari, yo'l qo'ygan kamchiliklari ochila boradi.

Romandagi ikki guruhning riyokorligi sabab bosh qahramon taqdirining fojea bilan tugashi kitobxonlar qalbini larzaga soladi. Bu o`rinda tarixiy haqiqat saqlangan. Tarixiy materiallar badiiy tahlilga o`tib estetik mohiyat kasb etgan. Kitobxonlarning yaxshilik va yomonlikka munosabatini o`tkirlashtirishga olib kelgan.

Romanni o`qir ekanmiz, beixtiyor xayrixoh odamlarga do`stlik tuyg`ularimiz, riyokorlarga nisbatan esa nafratimiz oshadi. Mirzo Ulug`bek reaksiyon guruhlarning sotqinligi tufayli nochor ahvolda qoladi. Qilich ko`targan farzandiga qarshi lashkar tortishdan voz kechib Samarqandga chekinganida sotqin amaldorlar poytaxtni egallab uni shahar tashqarisida qoldiradilar. Bu ishda amir Jondor o`ta surbetlik qilib Mirzo Ulug`bekka saltanatning qo`ldan ketganligini anglatishga harakat qiladi.

Psixologik vaziyat borgan sari chigallasha boradi. Amir Jondor endi xoinlik yo`liga o`tib, Ulug`bekdan yuz o`giradi va padarkush Abdulatif xizmatiga o`tganligini oshkor etib shohni fojeadan ogohlantiradi.

Ana shu taxlitdagi sotqinliklar Mirzo Ulug`bekni taxtdan ajralishga olib keladi. Yozuvchi voqelikning tarixiy taraqqiyotini hech bir buzmasdan tasvirlashga intiladi. Me`yorni saqlay biladi. Raqiblari Mirzo Ulug`bekni diniy sud qilishga jazm etadilar.

Bu sudda Shayxulislom Buxoniddin, Xo`ja Miskin singari Ulug`bek tarafdorlari qatnashmay, balki uning dushmani Nizomiddin Xomush yig`inga boshchilik qiladi. Yozuvchi bu epizodda ham firklar jangiga keng o`rin beradi. Taxtdan chetlatilgan Mirzo Ulug`bek o`z raqiblari bilan din ilmi jangiga kirishadi...

“Ha, hazratim! Ahkomi din bobida mubohasa qilmoq uchun ilmdan ogoh bo`lmoq darkor! Nadomatlar bo`lg`ayki, bu qabih murosaga aqlli, zukko ulamolar emas, aqlli qosir gumrohlari yig`ilibdur... Zerokim, o`g`il bilan ota o`rtasiga nifoq solib, farzandni o`z padariga qayrash... Gunohi kabir emasmu, hazratim?”

Diniy suddagi mana shunday fikrlar jangi Ulug`bekning g`olib chiqishi bilan tugallanadi. Ulug`bek Abdulatifning yonida Xo`ja Ahror eshonni ko`rib bu diniy ahboblarning saltanat tomon intilishlarining sirlarini tushuna olmaydi. Sirli taxt manzaralarini xayolan tahlil eta boshlaydi.

Birinci qism oxiriga borgan sari bosh qahramon ezuvchi xayollar changaliga tushib, uning qiyonoqlariga berilish damlari boshlanadi. Diniy sudga ota va farzand jangi ulashib ketadi. Abdulatif ota nasihatlarini oyoqosti qilib, saltanatga, javohirlarga intiladi. Ulug`bek Abdulatif bilan fikrlar jangiga kirishar ekan, taxtga o`tirgan noqobil farzandning qo`lidan ertaga har qanday qabihlik kelishini sezadi.

Shuning uchun ham u Abdulatif huzuriga o`z jonini saqlab qolish uchun kirmaydi. Bu Mirzo Ulug`bek ruhiga butunlay yot narsa. U o`zidan keyin kelayotgan shogird va ustozlari taqdirini o`ylab shoh Abdulatif oldiga eng so`nggi talabini qo`yadi. Olimning beadam iztirobga tushganining boisi ham mana shu.

Ko`rinadki, psixologik tahlilning qamrovi borgan sari kengayib boradi. Ulug`bekning ruhiyatini yanada yorqinroq ifodalash uchun unga qarshi turuvchi kuchlarning obrazini yaratish; ularning Ulug`bekka va ayni paytda zamonga munosabatlarini ko`rsatish uchun esa bu obrazlarning ruhiy qiyofalarini keng tasvirlash lozim edi. SHu tariqa tahlilga ezuvchi hukmron sinfning ikki qora guruhi kirib keladi.

Bulardan biri ezuvchi amir-amaldorlar bo`lsa, ikkinchisi mehnatkash xalqni zulmatda, itoatkorlikda asrashga intiluvchi ruhoniylarning qora guruhidir. Ulug`bek umri so`ngida ana shu ikki qora guruh qahriga uchraydi. Yozuvchi Ulug`bekning mehnatkash xalq manfaatini ko`zlab, qora guruhlariga qarshi borish faoliyatidan nurli izlar izlaydi.

Ana shu nurli izlar – qirq yillik osoyishta hayot va ilm-ma`rifat xazinasini barpo etish yo`lidagi fidoyiliklar bosh qahramonni aqlarini lol etarliksizlikka ko`taradi. Kitobxonlar xalqni deb amir-amaldorlarning talonchilik nafsiga zarba bergan va ruhoniylarning yovuz qarashlarini oyoqosti qilgan Ulug`bekni bir umrga

sevib qoladilar. Tarixiy taraqqiyotda uning tengi topilmas qahramon ekanligiga iqrор bo`la boradilar.

Zero, ikkala yovuz kuch birlashib Mirzo Ulug`bekni halokat yoqasiga olib borib qo`yganligi bosh qahramonning ruhiy iztiroblaridan sezilib tursa ham, uning tanlagan yo`li va e`tiqodidan chekinmasligi xarakter salobatini oshiradi. Samarqanddan chiqib ketayotgan Ulug`bek Qalandar Qarnoqiy bilan uchrashib tarixiy ziddiyatlarning sabablarini anglaydi. Nizomiddin Xomush kabi dindorlarning ma`rifat va tarixiy taraqqiyot dushmani ekaniga yana bir bor ishonch hosil qiladi. Birinchi qismning so`nggi sahifalarida Ulug`bek o`z shogirdi Ali Qushchi bilan uchrashadi. Bu uchrashuv unga ma`naviy madad beradi. Ammo bu qism tarixiy haqiqatga mos tarzda Mirzo Ulug`bekning Said Abbos tomonidan qatl etilishi bilan nihoyasiga etadi:

“Poymol bo`lgan g`urur va haqorat tuyg`usidan larzaga tushgan Mirzo Ulug`bek lablarini tishlab, ingrab yubordi: “Yo parvardigor! Xuddi qurbonlik qo`yday sudraydilar. Qaysi yozuqlarim uchun bu nadomat, bu xo`rlik?... Qaydasan, o`g`lim Ali? – Ali Qushchini eslashi bilan ko`ziga yana yosh keldi. – Attang! Boya nechun uni orqaga qaytardi? Bu nobakor shahzodaning qo`l ostidan chiqquncha birga bo`l desa bo`lmasmidi?...”

Mirzo Ulug`bek o`pkasi to`lib, kalima keltira boshladi. Lekin ko`z yoshi aralash tepasiga kelib to`xtagan Said Abbosning qora quzg`un vajohatini, boshi uzra ko`targan qilichini ko`rdi, ko`rdiyu, ijirg`anib ko`zlarini yumarkan: “Alvido, Ali! Umidim yolg`iz sendan! Ilohim mening boshimga tushgan bu savdolar sening boshingga tushmagay!.. Yo rab, yozug`im nedur manim?” deb pichirladi”.

Muallif asarning birinchi qismini yakunlar ekan, Ulug`bek hayotining so`nggi damlaridagi uning fikrlari, hissiyotlari oqimini ifodalay turib, o`z oldiga qo`ygan g`oyaviy-badiiy yo`nalishdan kelib chiqqan holda, ikki narsaga o`quvchi e`tiborini tortadi:

Birinchisi – uning Ali Qushchiga tilaklari, ikkinchisi – Said Abbosning “qora quzg`un vajohati” va uning qilichi. Bu ikki chizgi ham ramziy, ham

g`oyaviy ma`no kasb etadi va romanning ikkinchi qismida kechadigan voqealar silsilasiga zamin hozirlaydi.

Endi romanda psixologizmning etakchi badiiy prinsipi darajasiga ko`tarilgan analitik prinsip ko`llanilishining g`oyaviy mazmunga va badiiy shaklga qanday ta`siri bor? – deyilgan so`roqqa javob izlab ko`raylik. eng avvalo, psixologizmning analitik prinsipi roman uchun tanlangan zamon va makon ruhiy chegaralarini kengaytirishga imkon yaratgan. Xayolning kirib borolmaydigan ko`chasi, zabt etolmaydigan cho`qqisi yo`q. Buni yozuvchi badiiy ijodda sinab ko`rgan.

Agar shu analitik prinsip qo`llanmaganda edi, Ulug`bek podsholining oxirgi damlari qalamga olinib uning chegaralari kengaytirilmaganida roman mazmuni shu darajada yuksaklikka ko`tarilmagan bo`lur edi. Analitik prinsip tufayli biz Ulug`bek davridagi kichik bir olam yaratilganligiga duch kelamiz.

II.2. Ruhiy tahlil imkoniyatlari

Bu olamda Ulug`bekning avlodlari unga zamondosh bo`lgan aholining barcha qatlamlari tasvirlangan. Asar mazmuni psixologizmning xayol, xotira, o`y, orzu-portret va tush kabi yashash shakllari bilan boyitila boradi. Tarixiy taraqqiyot, tarixiy haqiqat unda o`zining badiiy tasvirini topadi. Ulug`bek o`zining xalqparvarligi bilan tarix sahnasidagi amir va amaldorlarga, diniy ahiboblarga qarshi borishining tarix fojeasiga sabab bo`lgani ishonarli tarzda tasvirlanadi.

Analitik prinsipning badiiy shaklga qanday ta`siri borligini izohlaydigan bo`lsak, romanning ikki qismga ajralish sababi ochiq-oydin bo`lib qoladi. Chunki birinchi qismda Ulug`bekning toju taxtdan ayrilg`i asoslangach, ikkinchi qismdagi asosiy tasvir obyekti bo`lgan va xazinasini yo`qotish uchun kurashga yo`l ochilganligi anglashiladi.

Demak, birinchi qismdagi Ulug`bekka qarshi kurash, ikkinchi qismda uning bilimlar xazinasini yo`qotish uchun kurash bilan bog`lanib ketadi. Asardagi butun dahshatli voqealar ana shu ikkinchi qismga jonlangandir. Ikkinchi qismdagi tasvir mavlono Muhiddinlar oilasidagi voqealardan boshlanadi. Va asosiy voqea Mirzo ulug`bek vafoti fojealarining davomi tarzida shu xonadon boshiga tushajak fojealar bilan birikib ketadi.

Ulug`bek olamdan o`tdi, u qatl etildi. Lekin jamiyatdagi kurash uning fojeaviy o`limidan keyin ham davom etadi. Salohiddin zargar o`z o`g`li mavlono Muhiddinni tavbasiga tayantirish uchun piri shayx Nizomiddin Xomush oldiga uning avfini olmoq uchun yo`llayapti. Ko`ramizki ,kurash oila doirasida ham davom qilyapti.

Fursatdan foydalanib, otasi o`zining yolg`iz farzandini o`ziga va e`tiqodiga bo`ysundirib olmoqchi. Agar Abdulatif o`z otasini o`ldirish oldida to`xtamagan bo`lsa, Salohiddin zargar ham o`z o`g`lini yanchib, ruhan sindirish va o`ziga xos tovbasi qilish oldida to`xtamayotibdi.

Ma`naviy xazina atrofidagi kurash oilada ham, turli tabaqa va mamlakatda ham tus olib davom etyapti.

Salohiddin zargar mavlono Muhiddinni ruhan sindirib, uni Ali Qushchiga qarama-qarshi qo`ymoqchi va uni o`g`lining qo`li bilan barbod etmoqchi. Bu holatlar mana shu keltirilgan parchada, uning matn ostida juda nozik va chuqur badiiy aks ettiriladi. Vahimaga tushgan mavlono Muhiddin har narsaga tayyor ekanligi ham bo`rttirib ko`rsatilgan.

Romanning ikkinchi qismida voqealar oqimi yangilanganday tuyuladi, biroq bu oqimda ham Ulug`bek ruhi hukmronlik qiladi. E. Karimov ta`biri bilan aytganda, “Tarixiy arboblarni biz yashayotgan zamonaga yaqinlashtirish, ular obrazining psixologik jihatdan teran asoslanishi orqali erishiladi”.

Ikkinchi qismda “teran asoslanish”ning psixologik oqimi Ulug`bekka xiyonat qilganlarning zamona zarbalariga birin-ketin uchrashi, taqdirlari fojea bilan tugashiga borib taqaladi. Ulug`bekdek adolatli xalqparvar zotga salohiddin zargar

singari, yoki Amir Jondor kabi qilni qirq yoradiganlar xoinlik qiladimi, yoki “o`z pushti kamaridan bo`lgan” Abdulatif singari tojparastlar xoinlik qiladimi, baribir ular ham tarix tomonidan jazolanadilar.

E.Karimov yuqoridagi fikrlarini davom ettirib shunday yozadi: “Ulug`bekning o`z mohiyatiga ko`ra epik shaxsi boshqa qahramonlar (Ali Qushchi, Qalandar Qarnoqiy va hokazo) ruhiy dunyosining tuzilishi va sozlanishi hamda tarixiy epopeya kompozitsion tuzilishining parametrlari uchun kamerton bo`lib xizmat qiladi.

“Ulug`bek xazinasini”da tabiat va jamiyat, inson va xalq, Yer va osmon hayoti keng ko`lamda tadqiq etildi”. Bu haqqoniy baho. Yozuvchi haqiqatan ham Ulug`bek xarakteridan uning hozirgi davr ma`naviy hayoti bilan tutashib ketadigan ibratli tomonlarini izlaydi. Tafakkuri o`z zamoni tarixiy taraqqiyotidan o`zib ketgan Ulug`bek fazilatlarini, uning qirg`in urushlarning oldini olib tinch hayot uchun kurashishini yozuvchi keng qamrovda

tasvirlagan. Shu ulkan mazmunga monand shakl yaratgan. Boshqacha qilib aytganda, Ulug`bekning bilim xazinasini yovuz kuchlardan asrab qolish va kelgusi avlodga etkazish tadbirini ado etishni tasvirlash orqali badiiy shaklni yuzaga keltirish g`oyaviy-psixologik markaz sifatida tanlanadi. Ikkinchi qismdagi butun obrazlar, voqealar, detallar, tasvir vositalari ana shu g`oyaviy kompozitsion markaz ehtiyojlaridan o`sib asar zargar xonadonidan boshlangan ekan, ota bilan bolaning fikrlar kurashi davrga xos ziddiyatlar bo`rtib chiqadi.

Saltanatga Abdulatif podshoh bo`lgach, vaziyat tubdan o`zgaradi. U butun saltanat ahvolini qo`l ostidagi amiru umarolar qo`liga topshirib qo`ya qoladi-yu o`zi kechmishini sarhisob qilishga o`tadi. U bunga ixtiyoriy tazda emas, akli o`z ruhiy olamini boshqara olmasligi natijasida shunday qilishga majbur bo`ladi.

Xotira, xayol, shubha va gumonlar Abdullatif qalbini kun-kundan emira boshlaydi. U ikmga ishonishini-da bilmay qoladi. Hammadan guomnsiray boshlaydi. Hammani o`ziga dushman deb biladi. Atrofidagilarning qiyofalari haqida esalay turib, ulraning harktariga o`zicha ma`no beradi.

Murtad Abdulatifning o'y-kechinmalari shakllanishi va oqimi davomida uning oldiga biri-biridan dahshatli savollar tug'iladi va biri ikkinchisidan manfurroq javoblar uning o'zini ham vahimaga soladi. Undagi gunohkorlik hissi va taxtparastlik o'rtasidagi ziddiyatli kurash uni shitob bilan qutulib bo'lmas ma'naviy qiynoqlar komiga tortadi.

Abdullatif taxtni egallagandan keyin, g'alabani katta tantana va xursandchilik bilan kutib olish o'rniga, o'z atrofidagi, uni taxtga ko'targan va sir-asrorlarini bilgan salaflarni yo'q qilish yo'liga o'tadi, mamlakat yangi qonli qirg'inlar gidobiga cho'ka boshlaydi. Yangi o'ldirishlar, yangi xiyonatlar, yangi dahshatli va vahimali voqealar yuz berayotganligi katta psixologik mahorat bilan tasvirlanadi.

Mamlakat yangi inqirozlarga yuz tutadi. Bu dahshatli va qonli olishuvlarda faqat saroy amaldorlari emas, chorasiz xalq qirilib ketadi, mamlakat ahvoli tobora og'irlashib boradi. Fojea ustiga fojea sodir bo'ladi.

Ulug'bekning o'limi oilaviy ziddiyatlarni ham yuzaga qalqitib chiqaradi. Bu hol Abdulazizning Abdulatifga qarshi bo'lgan faoliyatida ko'zga tashlanadi. Abdulatif amir – amaldorlar va ruhoniylar guruhi o'rtasida qaysi biriga yon bosishni bilmay telbalanib qoladi. Guruhlar o'rtasidagi raqiblik Abdulatifdagi ruhiy qiynoqni kundan-kunga kuchaytiradi. Bu esa psixologik portretida ayon bo'la boradi.

Abdulatifning shundan keyingi hayoti alam, qo'rquv, vasvasalar ta'sirida o'ta boshlaydi. endi u o'z qalbida kechayotgan g'alayonlarni sir tutolmay qoladi. Uning hatti-harakatlari o'z atrofida qilargalarga bo'lgan munosabati Abdulatif qalbini o'rtayotgan ichki tuyg'ular oshkor etadi.

Voqealar girdobi shahzoda Abdulatifni borgan sari ezib, tuyg'ular qa'riga tortib keta boshlaydi. Dahshatli his - tuyg'ular oqimida qolgan shahzoda Abdulatif xarakterini yorqin ifodalash uchun yozuvchi psixologizmning analitik prinsipini qo'llab, shahzodaga azob bergan tarixiy sabalarni birin-ketin ocha boradi. CHunonchi,

Abdulatifning bu qadar yovuzlashishida, tubanlashishida ilm-fan dushmanlari Ulug`bek raqiblarining qo`li borligi real tasvirlangan.

Abdulatif o`zinnig boshi solingan patnisni olib kirishgani haqidagi qo`rqinchli tush ko`radi va bunday epizod ham asarga behudaga olib kirilmaydi. Otasi Mirzo Ulug`bekning amir Jondor hurjunida keltirilgan kallasi, Abu Sayidning zindondan qochirilishi, amir Jondorning izsiz yo`qolishi bularning bari dahshatli tushning realistik zaminlari edi. Otani, ukani, qarindosh va g`animlarni faqat amir Jondor qo`li bilan qatl ettirgan yovuzning o`z ruhiy olamida ham amir Jondor jallod sifatida gavdalanishi tabiiydir.

Bunda Yozuvchi roman sahifalarida Ulug`bek dariga xos kichik bir koinot yaratib, unda bir necha shaxslarning qiyofalarini chiza borgani badiiy tahlilda ilmiy bashoratni kuchaytira boradi.

Odil Yoqubov Abdulatif va Ali Qushchi munosabatlarida badiiylikka qanchalik e`tibor bergan bo`lsa, psixologik tahlildagi ilmiy bashoratga shuncha e`tibor bergan. Ayni shu jarayonda analitik printsipning psixologik qudratini namoyon etadi. Ali qushchi Abdullatifnig mudhish telbalik holatini oxirgi marta kuzatar ekan, shunday xulosaga keladi:

“ - Hayhot” kim aytmish, bu noraso dunyoda haq va adolat yo`q deb! Bor! Kimki, bu dunyoda yomonlik qilsa – xoh shoh bo`lsin, xoh gado – jazosiz qolmaydi! Insonga aql va shuur shu maqsadda berilgankim, u bu teran haqiqatni tushunsin!

Kimki, bu haqiqatga tushunmay, adolatsizlik yo`lini tutar ekan, oxiri voy bo`lishi muqarrar!... mana, shahzoda! Toju taxt va shon-shavkat ishqida o`z padarini qatl qilishdan ham toymagan edi. Allomalar sarvari yoqqan ilm mash`alini so`nidirib, Movarounnahrni zulmat qo`yniga tashlagan edi. Oqibati ne bo`ldi? Ha! Bu foniy dunyoda ham haq va adolat bordur! Bandai mo`minlarga qalu qirg`in keltirgan, mehr-shafqat o`rniga jabru jafu, ilmi ma`rifat o`rniga zulmat to`sig`ini sochgan hech bir kimsa intiqomsiz qolmaydi!...”

Odil Yoqubov Ali Qushchining Abdulatif holatiga bergan bahosida taxt talashib qirg'in janglarni avj oldirishga olib kelgan davr psixologiyasini san'atkorona tasvirlagan. Ali Qushchi ilm-ma'rifat uchun fidoyi, hayot zahmatlarini ko'rgan, istiqbolni oldindan ko'ra oladigan aql egasi ekanligi tasvirga singdirib yuborilgan.

Ana shu ikki holat birlashib psixologik tahlilni hayotiy zaminini yaratgan. Romanning ikki qismida ikki xil shohning – ya'ni ma'rifatparvar Mirzo ulug'bek hamda padarkush Abdulatifning xarakteri yaratilgan. Yzuvchi ularning ruhiy olamlarida tarix taraqqiyotining va turmush ziddiyatlarining qanchalik iz qoldirganligini ochib beradi.

Mirzo Ulug'bek fojeasidagi hikoya va tush Abdulatif fojeasida ham aynan takrorlanadi. Kitobxonlar romandagi psixologik tahlil orqali ikki xil podshoning umr kechirish yo'llarini qiyoslash imkoniyatiga ega bo'aldilar. Abdulatيفا bir vaqtlar yordam bergan qora guruhlar, endi uning boshini tanasidan judo qilishga shoshiladilar. Yozuvchining mahorati shundaki, Abdulatif tomoniga o'tgan qora guruhlar orasidagi buzilishni roman sahifalarida yorqin tasvirlay olgan.

Ulug'bekka xoinlik qilgan jallodlarning o'zlari ham jabr tortgan Abdulatifni taxtdan olib tashlashga intilgan ijobiy kuchlarga kelib qo'shilishini psixologik asoslay olgan. Roman Abdulatifning qatl etilish holati tasviri bilan nihoyasiga yaqinlasha boradi.

Biz romandagi ikki xarakter ruhiy olamining talqinini ko'rib o'tdik. Agar romanning boshlanishi va tugallanishi Ali Qushchi faoliyati bilan bog'lanishining sababini chuqurroq o'ylab ko'rsak, yozuvchi ayni shu obrazga nima sababdan alohida e'tibor berganini anglab olish qiyin emas. Aniqrog'i, yozuvchi pozitsiyasi ko'proq shu obrazning ruhiy olami tasviri orqali oydinlashadi.

Romanda hech bir epizod, kartina, bob, obraz yo'qki, psixologizmning analitik prinsipi ularni qamrab olmagan bo'lsin. Ularning hammasida u yoki bu darajada Ulug'bek obrazi bilan psixologik bog'liqlik seziladi. Asradagi shayx

Nizomiddin Xomush, Salohiddin zargar, amir Jondor singarilar bilan bog`liq syujet liniyalari bir butun g`oyaviy markazni tashkil qiladi.

Ali Qushchi xarakteri ustoz Ulug`bek bilan yonma-yon roman markazida turadi. Shu boisdan ham roman uning faoliyati bilan boshlanib, uning ishtirokida nihoyasiga etkazilgandir. Roman sahifalari bo`ylab uning pokiza, jasur, haqgo`y, engilmas qiyofasi nur sochib turadi.

Romandagi xotira, xayol, tush, gallyutsinatsiya psixologizmning badiiy yashash shakllari bo`lib, ular har bir xarakterning yo ijobiy tomonlarini yoki salbiy jihatlarni ochib berishga xizmat qiladi. Natijada, psixologik tahlil yozuvchi qo`lida tarixiy taraqqiyotlarni va turmush ziddiyatlarini bor salobati bilan qayta jonlantirish voistasiga aylangan.

Romandagi Mirzo Ulug`bek yashagan davr shu davrga daxldor sotsial tabaqalar va mehnatkash xalq psixologiyasi shunday jozibali xarakterlarni yuzaga keltirgan.

Har bir etuk xarakterda ma`lum bir guruhning psixologiyasi individual shaklda ifodalangan. Masalan, ilm-fan guruhidagi olimlarning psixologiyasi Mirzo Ulug`bek va Ali Qushchilar xarakterlari orqali individual shakllarga ko`chirilgan. Yozuvchi ruhoniylar guruhiga doir psixologiya va uning vakillarini Qashqir, Qalandar Qarnoqiylar ruhiy olamini tahlil etish orqali mohirona ochib bergan.

Mehnatkash xalq psixologiyasi romanda usta Temur Samarqandiy va uning shogirdlari, Ali Qushchining shogirdlari Miram Chalabiy va Koshiy xarakteri orqali ifodalangan. Romanda ana shu kuchlar sabab Ulug`bek xazinasini asrab qolgan. Olimning asarlarini kelgusi avlodlarga etkazishda ularning vosita bo`lganligi psixologik jihatdan asoslab berilgan.

Roman kashfiyoti bilan bog`liq bo`lgan yuqoridagi tahlil jarayonlaridan quyidagicha xulosalarga kelish mumkin:

Adib "Ulug`bek xazinasini" romanini yaratganga qadar juda boy ijodiy tajribaga ega bo`lgan iste`dod sohibi sifatida tanilgan edi. Demak, eng avvalo, o`zbek xalq og`zaki ijodi, klassik yozma adabiyotimiz, so`ngra o`zbek

romanchiligi erishgan barcha yutuqlar, shuningdek, rus va umumjahon romanchiligi boy tajribalarini o`rganish, o`zlashtirish yozuvchining ijodiy laboratoriyasida muhim o`rinni ishg`ol qildi.

Bu hol muallifni davr ma`naviy ehtiyojidan kelib chiqib asar yaratish psixologiyasi bilan qurollantirdi. “Ulug`bek xazinasini” romani davrning ana shunday psixologik ehtiyojiga badiiy javob tarzida yaratildi.

Har qanday badiiy kashfiyot yaratilayotganda yozuvchi psixologiyasi ijodiy laboratoriya rolini o`taydi. Davr taqdim etgan g`oya yozuvchi psixologiyasiga tushib, unda “bir butun mukammal badiiy shakl”ga o`tish jarayoni boshlanadi. Demak, yozuvchi psixologiyasi yoki ijodiy laboratoriyasi kashfiyot tug`iluvchi zamin hisoblanadi.

Odil Yoqubov “Ulug`bek xazinasini” romaniga zamon va makon tanlar ekan, uning psixologik asoslarini chuqur idrok etadi. Tarix taraqqiyotining butun chigalliklarini, hamda turmush ziddiyatini ochib beruvchi tugun sifatida Ulug`bek saltanatining oxirgi davrlarini tanlay ola biladi.

Bu qisqa davr bosh qahramon ruhiy olamini tahlildan o`tkazishga va tarixiy voqealarni shiddatli tarzda tasvirlashga imkon yaratadi. Romanning bosh qahramoni mehnatkash xalq manfaatlarining shunday bir yuksak cho`qqisiga ko`tarilganki, u ana shu cho`qqida turib o`zining tarixiy taraqqiyotida tutgan o`rnini psixologik tahlildan o`tkazganda hech bir o`kinmaydi.

Biroq, u buyuk saltanatga darz ketayotganidan, ziyo yo`liga qora kuchlar to`squinlik qilayotganidan aziyat chekadi. Ulug`bek uzluksiz fikriy qiynoqlar girdobida qoladi. Butun tarixni, o`z hukmronligi davrini psixologik tahlildan o`tkazadi.

e`tiqodiga xiyonat qilib umrini saqlab qolguncha, boshidan ayrilishni afzal biladi. Butun ruhiy olamidagi pokizalik uning jasur kurashchi, xalq manfaatlarining himoyachisi, ona yurtining osoyishtaligini ta`minlovchi hukmdor ekanligidan dalolat berib turadi.

Yozuvchi Ulug`bek xaarkterini kashf etar ekan, voqealar tarixini aniq tasvirlab qamrovni keng oladi. Mutafakkir davri tarixini qayta jonlantiradi. Ana shu tasvirda Ulug`bekning jahongir bobosi Amir Temurdan tortib turli-tuman qiyofali shohlar va shahzodalar tarixiy faoliyatlari ruhiyat ko`zgusida ko`rsatiladi. Ulug`bek ular orasida xalq manfaati va ilm-ma`rifat e`tiqodi yo`lida boshini tikkan va jasur xalq qahramoni sifatida ziyo taratib turadi.

Yozuvchi insoniyat va davrlar iftixoriga aylangan Ulug`bek siymosini chizar ekan, uni shunday tarixiy voqealar girdobidan olib o`tadiki, natijada uning amir va ruhoniylar yovuz kuchlar to`g`risida chiqargan hukmlari zamonamizning hukmi bilan tenglashib ketadi. Binobarin, Ulug`bek ruhiy olamining badiiy inkishofi bilan inson barhayotligining sirlari oshkor bo`la boradi.

Odil Yoqubov Ulug`bek davri materiallariga shunday bir o`tkir nigoh bilan yondashadiki, ular orasidan hech bir yozuvchining nigohi tushmagan hayot qirralarini tanlab oladi. Shu bilan birga, ushbu manbalardan tamomila yangi-yangi xarakterlar kashf etishga ahamiyat beradi.

Xazinador Ali Qushchi shunday obrazlardan biridir. Uning ruhiy olami bilan ustoz Ulug`bek ma`naviy olami monandlashib davr haqiqatini aynan ko`rsatadi. Padarkush farzandning xurujlaridan Ulug`bek xazinasini asrab qolgan bu buyuk zotning romanda inkishof etilgan obrazi tariximiz haqida qoniqish bilan hukm chiqarish uchun psixologik asos beradi.

Shu xarakterning ruhiy olami Ulug`bekning jahonshumul ilmiy xazinasining mohiyatini kelajak avlodlar manfaati bilan payvandlovchi vosita rolini o`ynaydi. Ali Qushchi obrazi xalq vakillari bilan birlashib ulardan kuch va quvvat olib yengilmas bahodir qiyofasiga kiradi.

Tarixiy taraqqiyot va turmush ziddiyatlarining psixologik tahlili ikki buyuk zot ruhiy olamidan tashqari juda ko`plab xarakterlarning kashf etilishini taqozo qiladi. Yozuvchi davr psixologiyasiga yondashishning nozik nuqtalarini topa bilgan. Bu noziklik eng avvalo, yozuvchining xarakterlarni qo`shaloqlashtirish usulida ko`rinadi.

Ruhoniylar orasidan Shayxulislom Burxoniddin singari taraqqiyotga progressiv yondashuvchi shaxslar bilan qatorda taraqqiyotning ashaddiy dushmani bo'lgan Nizomiddin Xomush xarakterini yaratadi. Yoki ma'rifatparvar Mirzo Ulug'bekka sadoqat bilan xizmat qiluvchi Bobo Husayn xarakteri bilan birga ochko'z va shuhrattalab amaldor amir Jondor xarakterini tasvirlaydi. Psixologizmning ana shu qo'shaloqlashtirish prinsipi tarixiy taraqqiyot va turmush ziddiyatlarini to'laroq ochib berishga imkoniyat yaratgan.

Qo'shaloqlashtirish prinsipi romanda izohlar obrazini yaratishda ham keng psixologik tahlilga yo'l ochib bergan. Bu usul hatto romanning badiiy shakliga ham kuchli ta'sir o'tkazgan. Roman qo'shaloq ikki fojeadan iborat. Birinchi qism Ulug'bekning fojeali halokati bilan tugasa, ikkinchi qism Abdulatifning ayanch qismati bilan yakunlanadi. Psixologizmning bu qo'shaloqlashtirish prinsipida Mirzo Ulug'bekning qirq yillik saltanati bilan Abdulatifning olti oylik shohlik davri muqoyasa qilinadi. Ana shu muqoyasa g'oyaviy hukmga olib keladi.

Ulug'bekning o'z ruhiy olamini tahlil chiqargan hukmi va e'tiqodiga sodiq qolishi uni tarix va turmush ziddiyati orasidan yo'l topuvchi mutafakkir sifatida e'zozlashga sabab bo'lsa, Abdullatifning ruhiy olami tasodifan taxtga chiqib qolgan ojiz telbaning fojialariga to'la ayanchli taqdirini namoyon qiladi.

Yozuvchi Abdulatif ruhiy olamini chizar ekan, uni faqat qora bo'yoqlar tasvirida aks ettirmaydi. O'rni-o'rni bilan undagi ilmiy iqtidorni, jasurlikni bera boradi. Biroq, Abdulatif tushgan muhitni shu qadar quyuq bo'yoqlarda chizadiki, natijada shuhratparast bu telbaning padarkushlik yo'liga tushishiga muhit sababchi ekani yaqqol ko'rinadi. Ruhoniylar guruhining Abdullatifning subutsizligidan foydalanishi, padarkushning ular boshiga cheki yo'q musibatlar tushirishi tarixiy voqelik fonida haqqoniy chizilgan.

Abdullatifning telbaligi ustiga uzluksiz may ichishi, so'ngsiz qirg'inlar girdobiga qolib gallyutsinatsiya holatiga muhtalo bo'lishi va o'limi oldidan o'z qabohatlaridan pushaymon bo'lishi yorqin bo'yoqlarda tasvirlangan. Birgina Abdulatif fojeasi emas, romandagi barcha shaxslar fojealari u yoki bu tarzda

Ulug`bekka xiyonat qilganlari sababli sodir bo`lgani, haqiqatning Ulug`bek tomonida ekani mahorat bilan aks ettirilgan.

Ayniqsa, mamlakatga olti oy hukmronlik qilgan Abdulatif davrida tarixiy taraqqiyotning tanazzulga yuz tutishi, turmush ziddiyatlarining echib bo`lmas darajada chigallashib ketishi, mamlakatning vayronalikka uchrashi, qora guruhlar o`rtasidagi manfaatlar to`qnashuvi badiiy hujjat darajasida aniq ifodalangan.

Odil Yoqubov bosh qahramon siymosini markazga qo`yib, Ulug`bek davridagi amaldorlar, ruhoniylar guruhlarining tarixiy taraqqiyotdagi o`rnini ochar ekan, ayni shu jarayonni yanada yorqin aks ettirish uchun oilaviy munosabatlarning turmush ziddiyatlarini yaqqol ko`rsatuvchi o`rnini Salohiddin zargar oilasi timsolida ochib berishga jazm qiladi. Xurshidabonuning fojiali sarguzashtlari, Salohiddin zargar, mavlono Muhiddin, amir Jondor, Qalandar Qarqoniy, Abdulaziz, Abdulatif singarilarning ruhiy olamidagi manfiy yo musbat qutblarni oshkor qilish yo`li bilan Ulug`bek davri psixologiyasi birin-ketin ochila boruvchi lavhalarni yuzaga keltiradi. Shularsiz roman shakli mukammal bo`lmaydi.

Romanda Ulug`bekning ma`rifatparvarlik ishlarini davom ettiruvchi Miram Chalabiy, Mansur Koshiy singarilarning Ali Qushchi bilan birlashuvlari davr psixologiyasidagi eng qimmatbaho nuqtalar tarzida saralab olingan. Ayni shu jarayonlarda yozuvchi psixologiyasining davr manzaralarini qamrab olishdagi kengligi yarq etib ko`zga tashlanadi. Yozuvchi bu bilan davr psixologiyasidagi juda ulkan bir haqiqatni kashf etishga muyassar bo`lgan.

Ya`ni, Mirzo Ulug`bek yoqqan ma`rifat mash`alasini so`ndirmoq hech qanday yovuz kuchning qo`lidan kelmaydi. Chunki Ulug`bek o`ldirilgani bilan uning Ali Qushchi, Miram Chalabiy, Mansur Koshiy singari sevikli shogirdlari bor ekan, bu jarayon zavol bilmaydi va kelajakka daxldor bo`lib qolaveradi, degan g`oya olg`a suriladi.

Romandagi psixologik tahlilning baquvvatligini ta`min etgan yana bir markaz bor. Bu markaz mehnatkash xalq vakillari ruhiy olamlarining yaratilishi

bilan bevosita bog`lanib ketadi. Romanda usta Temur Samarqandiyning jahongir Amir Temur bilan o`zaro munosabatlari shu qadar yorqin sahifalarni tashkil etadiki, har bir kitobxon shohlikning o`tkinchiligi to`g`risida, shuningdek, qurol yasashdan voz kechish haqida usta Temur Samarqandiy kelgan qat`iy qaror sehriga maftun bo`ladi. Yozuvchining davr psixologiyasini ifodalashdagi mahorati usta Temur, Qoplonboy, Bosqonbek singarilarning Ulug`bekning ilm xazinasini saqlab qolish va avlodlarga etkazish borasidagi beminnat zahmatlarini aks ettirish jarayonlarida yanada sayqal topadi.

Umuman, “Ulug`bek xazinasini” romanida Odil Yoqubov ijodining ko`p qirrali tomonlari alohida bir kuch bilan yaxlit namoyon bo`lgan. Masalan, Ulug`bek muhiti va uning shogirdlari faoliyati tasvirida epik teranlik ham, nozik va musiqiy lirizm ham, publitsistik jo`shqinlik, chuqur va keskin drammatizm ham o`ziga xos yo`sinda ko`zga tashlanadi. Tabiiy holki, bular nihoyatda xilma-xil vositalarni talab qiladi. Turli-tuman obrazli vositalarning uyg`unligi ham, nutq va nutqiy xarakteristikasining rang-barangligi ham, ulkan so`z lug`ati va xalq tilining takrorlarini chuqur bilish va his etish ham, ularni o`z o`rnida ishlatish ham shular jumlasiga kiradi.

Qisqasi, bu roman bizni o`zbek adabiyotining yarim asrdan ko`proq davr ichida erishgan (ayniqsa, tarixiy romanlar borasidagi) yutuqlarini eslashga da`vat etadi. 20-30-yillarda “O`tkan kunlar”, “Mehrobdan chayon”, 30-50- yillar orasida “Qutlug` qon”, “Navoiy” kabi klassik asarlar o`zbek tarixiy romanchiligining yuksak cho`qqiga ko`tarilganini namoyon qilgan edi. Uning navbatdagi – 60-70-yillarda erishgan yutuqlari xususida gap boradigan bo`lsa, “Ulug`bek xazinasini” romanini ham ko`rsatmaslik mumkin emas. Biz bu asar eng yaxshi tarixiy romanlarimiz safidan o`ziga munosib o`rin oladi, degan fikrdamiz”.

Zamon psixologiyasi hamma narsani qamrab oladigan juda keng tushunchadir. Aytaylik, badiiy ijod jarayonida davr ma`naviy ehtiyoji yozuvchiga yo`l ko`rsatuvchi yulduz bo`lib xizmat qiladi. Yozuvchi jamiyat farzandi sifatida

shu davr bergan hayotiy materiallarni, davrning o'zi taqdim etgan g'oyalar va qahramonlarni ijodiy laboratoriyasiga qabul qilib oladi.

Boshqacha aytganda, o'sha davr g'oyalarini, turmush materiallarini va hayot qahramonlarini qay darajada badiiy aks ettira olishi yozuvchining o'ziga bog'liqdir. Tarixda oldin turg'unlik davri deb nom olgan, keyinchalik imkoniyatlar boy berilgan davr deb atalayotgan katta bir jarayonni bugungi zamon ehtiyojlaridan kelib chiqib baholash zarur.

Bu ikki davr psixologiyasi o'rtasida jiddiy tafovutlar mavjud. Mana shu tafovutlar bugungi badiiy ijod jarayonida har bir millatning psixologik qiyofasini yaratishda o'ziga xos yo'ldan bormoqda.

Demak, milliy psixologik qiyofa davr psixologiyasidan olinmoqda. SHaxs o'zi mansub bo'lgan muhit va unga xos assiy aqdalardan ayro tusholmaydi. Yoki ularga bo'ysunadi yoki ko'p hollarda fojeiy qismatga girftor bo'ladi. O.Yoqubov asarlarida ana shu masala badiiy jonlantirilgan.

III bob. DAVR VA INSONIY MUNOSABATLARNING BADIY JONLANTIRILISHI

III.1. O.Yoqubov romanlarida zamon va shaxs taqdirining badiiy asoslanishi.

Shaxs va jamiyat munosabatlarining badiiy talqin etilishi masalasi O.Yoqubovning nafaqat tarixiy asarlari, balki zamonaviy mavzudagi romanlarida ham o'ziga xos tarzda badiiy talqin etilgan. Ijodkorning “Oqqushlar, oppoq qushlar” romanida ikki davr psixologiyasining to'qnash kelishi badiiy syujet to'qimasiga hamda xarakterlar kashfiyotiga asos bo'lganligi ishimizga ancha aniqliklar kiritadi.

Roman xalq qo'shig'idan olingan quyidagi bayt-epigrama bilan boshlanadi:

“Tariximda qadrimni bilmadingiz, jo'rajon,

O'lgandan so'ng xoh biling, xoh bilmangiz, jo'rajon”.

Ana shu xalq qo'shig'idan olingan epigrafdagi g'oya Odil Yoqubov romanlarida turli davr qiyofasini ko'rsatuvchi badiiy o'lchov tarzida namoyon bo'ladi. SHu g'oya yuksakligidan turib yozuvchi Ulug'bek davri illatlarini fosh etadi. Tirigida qadriga etmagan zamondoshlarining o'kinchli qiyofalarini chizadi.

Romanning birinchi bo'limida Gulsara ayaning tirikligida qadriga etmagan Normurod SHomurodov va Otaqo'zining o'iknchlari qo'shilib ketadi. Ularning alam-iztiroblari kuchli oqim sifatida yakun topadi. Go'yo “Oqqushlar, oppoq qushlar” romanidagi g'oyaviy urug' “Diyonat”da tashlanganidek, shu romanda keyingi roman uchun psixologik asos mavjuddek tuyuladi.

Ijtimoiy fojialar va ularning inson psixologiyasigata'siri masalasi yozuvchinnig zamonaviy mavzudagi romanlarida ham o'z aksni topgan. Jumladan, adibnnig «Oq qushlar oppoq qushlar» romanidagi voqealar kitobxonni befarq qoldirmaydi. Romanda davr psixologiyasidan tug'ilgan insonlar faoliyatidagi

jamiki ishlar badiiiy tarzda tasvirlanib nodir bir asarning yaratilishiga olib kelgan. Shular orasida Oysuluv qiyofasida milliy an`analarining individuallashtirilganligi jarayonlarini ko`zdan kechiraylik.U o`zbek ayoli psixologiyasini o`zida mujassam qilgan hech bir turmush qiyinchiliklaridan zorlanmaydi. Hamisha turmush o`rtog`iga sadoqatda bo`ladi va poklik yo`lini tutadi.U umr bo`yi oilaviy baxtni o`ylab yashaydi .

Asarda o`zbek xalqiga xos milliy rasmg`rusumlarni yozuvchi mohirona chizadi. Oysuluvning sog`ligi og`irlashgan paytda qadimiy odatdan ham madad istagini yozuvchi g`oyatda ishonarli tarzda yaratgan.Bu holat o`zbek milliy tuyg`ulariga zid emas. Unda na jamiyatga, na siyosatga ziyon keltiradigan intilishlar yg`q. Biroq romandagi Po`lat papka va Mehrinisolar qildan qiyiq axtarib SHavvozni davr siyosatiga qarshi borayotgan kishi sifatida ayblamoqchi bo`ladilar.

Yozuvchi Oysuluv timsolida milliy an`analarimizning teran ildizlariga qo`rqmay murojaat qiladi. Bu mushtipar ayolning pokiza tuyg`ularini avlodlarning o`lmas ruhiga bog`laydi.

Muayyan davrda xalqimizning milliy zaminga tayangan tuyg`ulari ozor chekdi. Bu davr psixologiyasi tug`dirgan illat edi. Yozuvchi ana shu illatni Po`lag papka va Mehrinisolar qiyofalarida milliylashtirib bergan. Yozuvchi Oysuluv va Shoraxim shavvozlar oilaviy munosabatlarida millionlab o`zbek xonadonlariga xos bo`lgan milliy o`zlikni mujassamlashtirgan. Mana hazrat O`kkosha mozorini ziyorat qilishga borayotgan holatlar chizilgan manzara tasviri: “Shorahim salkam , balki o`ttiz besh yil bosh ko`tarmay ishlagan va nimasi bilandir o`z farzandiday qadrdon bo`lib qolgan bog`iga ko`zi tushganida yuragi “jiz” etib, a`zoyi badani jimirlab ketdi, garchi ishdan haydalgan bo`lsa ham shu tobda shohlariga bitta yarimta olma va behilar qolgan (shovvoz ularni jo`rttaga “churvaqalar” uchun qoldirar, ular qishda bu bitta yarimta olmayu, behilarni xazonlar orasidan qidirib, qushchalarday chug`urlashib yurganlarini ko`rganida azbaroyi quvonganidan o`zi ham bolalarga qo`shilib ketardi.) bu sevimli bog`ini tashlab ketib to`g`ri qilyaptimi, yo`qmi – buni o`zi ham bilolmay qoldi. Ana, ancha yiroqda, soy

bo'yida, atrofi sarvlar bilan o'ralgan, old ayvonli sersoya shiypon elas-elas ko'zga chalinadi, qorovul chol xazon yoqayotgan bo'lsa kerak, shiypondan harir ko'kimtir tutun ko'tarilardi.

Qarang-a! Uning o'ttiz besh yil umri osuda kuz oftobida erkalaniib yotgan mana shu beqiyos bog'da o'tibdi, o'tibdiyu, chekkan shuncha zahmatlari og'ir mehnati, uyqusiz kunlariga qaramay bu bog` nimasi bilandir unga o'z zurriyodlaridan ham aziz bo'lib qolibdi.

Kim bilsin, ehtimol bugun odamlar uning ishga chiqmaganiga yoqalarini ushlab hayron bo'lishayotgandir. Chunki o'ttiz besh yilda nari borsa, bir-ikki marta, boringki, uch-to'rt marta ishga chiqmagandir!"

Shovvozning bog` va u bilan chatishib ketgan o'z hayoti haqidagi o'ylari tafsiloti uning minglab – millionlab o'zbek zahmatkashlarining tipik vakili ekanligini, davrning g'ayriinsoniy psixologiyasi butun boshli xalqlar boshiga solgan kulfatlari uning ham hayoti, e'tiqodini zaqqumga, ro'yoga aylantirganini ifodalaydi.

Davrning shafqatsiz psixologiyasi uning fikrlari zanjiri rivojlangani sari yanada bo'rtibroq ko'zga tashlana boshlaydi.

Agar romanda kashf etilgan milliy qiyofa tarkibini belgilaydigan bo'lsak, yozuvchi eng avvalo, milliy tuyg'ularni birinchi o'ringa olib chiqishga harakat qilganining guvohi bo'lamiz. Chunki, ana shu milliy tuyg'ulardayoq davr psixologiyasi butun salobati bilan gavdalanadi. Shorahim shovvoz, Rasul Nuriddinov va Muzaffar Farmonovlarning xarakterlari tasvirida imkoniyatlar boy berilgan davrning dehqonchilik, ilm-fan va rahbarlik madaniyatiga xos qatlamlari badiiy tadqiq qilinadi. Ayniqsa, Shorahim shovvozlar oilasi tasvirida o'zbek xalqiga xos rasm-rusumlar tasviri ancha keng aks ettirilgan.

Shovvoz Oysuluvning diliga tukkan istagini bajo keltirib hazrat Ukkosha mozorini ziyorat qildiradi. Biroq, kelini Mehriniso kelib davr rahbari sifatida osilaviy qiyomatni boshlaydi. Jafokash qaynotasini sharmanda qilib, mushtipar qanyonasini yig'latgan Mehriniso timsolida davr psixologiyasidan tug'ilgan bir

mansabparastni ko`z oldimizga keladi. Shu oradagi kurash faqat mansabini o`ylab barcha narsadan voz kechuvchi shaxsiyatparastlarning kirdikorlarini kitobxonlar ko`z o`ngida qayta jonlantiradi.

Bu o`rinda uch obraz o`rtasida – qaynata – qaynana va kelin munosabatlari davr ma`naviy qiyofasidagi etakchi tendentsiyalar tarzida tasvirga olib kirilgan. Qaynata qiyofasidagi turmush o`rtog`iga nisbatan mehr-oqibat tuyg`usi o`zbek xalqi ma`naviyatidagi qadimiy fazilatdir. Kelin qiyofasidagi o`z rahbarlik shon-shuhratini himoya qilish tuyg`usi turg`unlik yillarida ayrim o`zbek mansabparastlari tuyg`ularida shakllangan davr illati edi.

Romanning bosh qahramoni davr psixologiyasini ko`rsatuvchi ko`zguga tenglashadi. Davr o`zgarishi bilan qahramon psixologiyasida ham o`zgarishlar sodir bo`lishi mohirona tasvirlanadi. Otaqo`zi talabalik yillarida, iqtisodiy muhtojlik paytlarida Shomurodovlar oilasidan ko`p g`amxo`rliklar ko`rgan. Ana shu ezguliklar evaziga kelajakda yaxshiliklar qilishni qayta-va qayta ko`ngliga tugardi. Uning bunday psixologik holatga tushishiga davrning o`zi sababchi bo`lgani qadamba-qadam ochib beriladi.

Davr va turmushning o`zgarishi bosh qahramon psixologiyasida ham yangi qirralarni paydo qiladi. Aynan shunday holatlar adibning «Diyonat» romanida ham o`ziga xos tarzda badiiy kashf etiladi. Asarning bosh qahramoni Otaqo`zi hayotida ham jamiyat va insoniy munosabatlar o`ziga xos mohiyatga ega. Otaqo`zi umrining eng bebaho damlari Normurod Shomurodov xonadonida o`tadi. Domla Shomurodov jiyaniga o`sha paytlari katta ishonch bilan qarar edi. Jiyanining ham kelgusida o`z kasbining chinakam fidoyisi bo`lishini xohlardi.

O`shanda Otaqo`zi qalbida bu tinib-tinchimas cholga nisbatan botiniy mehr tuyg`ulari paydo bo`lgandi. Vat o`tishi bilan domla Shomurodov xonadonida unib chiqqan mehr qayg`ularini mog`or bosa boshladi. Otaqo`zi katta hayot yo`liga chiqib olgach, mehr va oqibat haqida kam o`ylaydigan bo`ldi. Shuhratparastlik Otaqo`zini o`z girdobiga ana shunday torta bordi.

Ayaning tasodifiy o`limiga Otaqo`zining bilib-bilmay aytgan dag`al

soʻzlari sababchi boʻlgani uning ruhiy olamida anglab boʻlmas iztiroblar uygʻota boradi. Goʻyo bu obraz ruhiyatida psixologik yangilanish yuz bera boshlaydi. Ayni paytda ruhiy holatdagi evrilish inson xarakterining shakllanishi va iroda yoʻnalishining barqarorlashuviga sabab boʻladi.

Demak, jamiyatdagi ziddiyatlar Otaqoʻzini turli kuylarga soladi. U oʻzligini unutish darajasida shoishb, hatto aniq toʻgʻri xulosalar yoʻlidan chekinish bosqichlarini boshidan kechiradiki, ayni paytda yakka shaxs faoliyatidagi bunday kechmishlar jamiyatning boshqa aʼzolari hayoti, ruhiyati va kelajagi uchun naqfadar daxldorik kasb etishi mumkinlini anglamaydi.

III.2. Xarakter va ijtimoiy omillar masalasi.

Yana «Oq qushlar oppoq qushlar» romani voqelariga qaytga holda shuni taʼkidlashimiz mumkinki, bunda ham davr, inson ruhiyati va shaxs xarakterinnig muayyan bosqichga koʻtarilishi masalasi aniq va jonli hayotiy asoslar bilan dalillab borilgan holda isbotlab beriladi. Ijodkor davr psixologiyasini badiiy syujet toʻqimasiga mohirlik bilan singdirib yuboradi. Shorahimning vazifadan chetlashtirilishi anchadan beri zimdan pishib kelayotgan ziddiyat sifatida tasvirga kiritiladi. Sotix Muzaffarov biografiyasi orqali davr psixologiyasidagi oʻsha zamon chigalliklari bilan koʻrsatiladi. Bu yigit hamma ishga qodir. Muammlarni uddaburonlik bilan bajaradigan Muzaffar Farmonovning oʻgʻli. U mansab pogʻonalaridan davrga xos shiddat bilan koʻtariladi. Oddiy agronom, keyin boʻlim boshligʻi, qisqa muddat ichida oshno-ogʻaynigarchilik orqali sovxoz direktori boʻlib tayinlanadi. U mansab kursisiga oʻtirishi bilan oʻziga xos ish yuritadi.

Hammaning dunyoqarashini oʻz tarozisi bilan oʻlchaydi. Koʻngliga yoqmagan rahbar xodimlarning barchasini almashtiradi. Bularning barchasi imkoniyatlar boy berilgan davrning rahbar kadrlarni tanlash va joy-joyiga qoʻyish psixologiyasini fosh etish niyatida tasvirga kiritilgandir. Fotih Muzaffarovning

dabdabali boshqarish uslubi, bir tomoni axloqiy buzuvchi bilan bog`lansa, ikkinchi bir tomoni zahmatkash xalqqa jabr-sitam o`tkazish bilan tutashib ketadi.

Shovvozning kelini Mehriniso bilan Fotih Muzaffarov o`rtasidagi munosabatlar tobora tomir yoyayotgan nopok rahbarlik usulidan dalolat bersa, direktor bilan brigadir Shorahim shovvoz o`rtasidagi munosabatlar butun bir jamit tizimiga daxldor bo`lgan jabr-sitamini namoyon etadi.

Davr psixologiyasining berilishidagi eng muhim nuqta shundaki, yozuvchi rahbarlik uslubiga xos bo`lgan ko`pgina illatlarni Fotih Muzaffarov siymosida individuallashtirib bera olgan. U o`z qo`l ostidagilarga buyruqni so`zsiz bajaruvchi ishchi kuchi sifatidagina munosabatda bo`ladi. Itoat etmagan xodimlarni darhol almashtirishni odat qilib oladi.

O`zining haq-nohaqligini o`ylab ham o`tirmaydi. Yuqoridan berilgan buyruq so`zsiz bajarilishi kerak, deb tushunadi. Bunday usul million-million kishilarni Shorahim shovvozdek ranjitgani sir emas.

Yozuvchi davr psixologiyasidagi ana shu illatlarni Shorahim shovvoz iztiroblari orqali ochadi. U butun umri davomida tinimsiz ishlaydi. Mehnati evaziga rahmat eshitmay, sofliги uchun ishdan haydaladi. Shovvozning bu holati imkoniyatlar boy berilgan davrdagi mehnatkash xalq psixologiyasining individuallashtirishga ko`rinishidir.

Ikki qarama-qarshi xarakter kashfiyotida ikki xil psixologik qiyofaning shakllanish ildizlari ochib beriladi. Agar Fotih Muzaffarov xarakteridan turg`unlik yillaridagi rahbarlik uslubining umumittifoq imqiyosidani nuqtalari milliy bo`yoqlarda berilgan bo`lsa, Shorahim shovvoz xarakterini ochishga o`zbek xalqi butun tarixi davomida amal qilib kelayotgan milliy qiyofa belgilari – mehnatsevarlik, o`zini xayrli ishga bag`ishlashdagi fidokorlik asos qilib olingan.

U ishsiz qolgach, butun hayotini, oilaviy sharoitini xayolan tahlil qilib chiqadi. Umri bo`yi o`ziga sodiq qolib kelgan xotini Oysuluvning mungli holati uni asl insoniy qiyofaga qaytaradi.

Odil Yoqubov o'z asarida Nigora vositasida tarixning noyob obidalarini tahqir qilmoqchi bo'lganlarga o'zining qat'iy so'zini aytadi. Nigora boshchiligidagi ekspeditsiya a'zolari tasvirida o'zbek xalqining ko'p asrlik boy arxitektura tarixidan faxrlanish tuyg'usini romanda g'oyaviy motiv darajasiga ko'taradi. Buni o'tmishni qo'msash deb tushunish kerak emas. Balki boy madaniy qadimiy tariximizni e'zozlash, xalq yaratgan moddiy va ma'naviy boyliklarni o'rganishga yo'l ochish deb tushunish lozim. Davr psixologiyasi qora tamg'a bosgan milliy an'analar va osori atiqalardan iftixor tuyg'usi Nigora va uning turmush o'rtog'i Behzodlar siymosida san'atkorona nafislik bilan tasvirlangan.

Behzod- haykaltarosh, Nigora – arxeolog. Yozuvchi har ikkala obraz milliy xarakteri psixologiyasidagi o'z xalqining o'tmishiga bo'lgan mehr-muhabbatni ularning faoliyati ob'ekti bo'lmish tarixiy obidalar fonida ishonarli badiiy detallar bilan ochib beradi.

Yozuvchi badiiy mantiqqa amal qilgan holda bu obrazlarni faqat yorqin bo'yoqlardagina tasvirlaydi. U oila va zamon psixologiyasi to'qnaushlarini psixologizmning xotira shakli orqali ochib beradi.

Yozuvchi Shorahim shovvoz va Oysuluv oilaviy munosabatlarini romanga olib kirar ekan, bulardagi milliy qiyofani ikkita muhim omil bilan belgiladi. Dastlabki omil Shorahim shovvozning ijtimoiy faoliyatidir. U halol mehnatlari uchun yuksak unvonlarga erishadi. Biroq uning bu faoliyatidagi barcha xizmatlari davr psixologiyasidan tug'ilgan davr tufayli chilparchin bo'lib ketadi.

Shorahim shovvoz qiyofasidagi ikkinchi omil o'zi yashayotgan muhitning qirralaridan kelib chiqadi. Bog'dorchilik brigadasiga ham oshirilgan majburiyatlar olinadi. Qo'shimcha rejalarni qaysi yo'l bilan bo'lsa ham majbur qilinadi. Buyruqni so'zsiz bajarmaganligi uchun Shorahim ishdan haydaladi.

Ana shu ikki omil birikib, imkoniyatlar boy berilgan yillarda xalqimiz hayotida sodir bo'lgan mudhish holatlar Shorahim shovvoz obrazida mujassamlashtirilganligining guvohi bo'lamiz. Uning ishdan quvilish paytidagi

iztiroblariga kelinining to`g`ri yo`ldan ozdirilishi, xotini Oysuluv oldidagi insoniy qarz tuyg`usi kelib qo`shilib shovvoz tasiridagi psixolik oqimni kuchaytirib boradi. Uning atrofida yuz berayotgan voqelikning ta`siri SHorahim shavvoz miyasida o`rnashib turli turli fikrlar qo`zg`aydi va orzu, xohish, iroda shaklida namoyon bo`lgan hayotni xayolan tasavvur qilishga olib keladi. Uning xayoliy dunyosida fronhti do`stlari Rasul Nuriddinov, Muzaffar Farmonovlar gavdalanadi. Ana shu hayotning uch oqimida uning ijtimoiy faoliyatida ishdan haydaliish iztiroblarida va xayoliy dunyosida davr psixologiyasi to`laroq namoyon bo`ladi.

Mehriniso shu illat sabab bo`lib qaynotasini ham, qaynonasini ham ayovsiz “fosh etmoqchi” bo`ladi. Qaynota va qaynona munosabatlarini o`zicha talqin etib talvasaga tushadi. Haqiqatda, bu jazavada jon bor edi. Davrning nobop qonun-qoidalari Mehrinisoni mana shunday ahvolga tushirib qo`ydi. Shuning uchun ham Mehriniso yangi mansab pillapoyalarini o`ylab qaynona, qaynotasini “xurofiy” yo`ldan qaytarishga jon-jahdi bilan kirishadi.

Ko`rinadiki, tasvirga hayot haqiqati keng miqyosda kirib kelayotir. Romanga Alyosha, Larisa, Nigora obrazlarining kirib kelishi bejiz emas. Ularning jamiyatga, atrof-muhitga bo`lgan munosabatlari bilan tanishar ekanmiz, yozuvchining o`sib kelayotgan yangi avlod ruhiyatini chuqur tadqiq etganligiga ishonchimiz hosil bo`ladi. Shuningdek, ularning Mehrinisoga munosabatlari tufayli esa yozuvchi ma`naviy qashshoq rahbarga nisbatan achinish tuyg`usini ustalik bilan ifodalay olgan.

Qaynona ruhiy olamidagi ustunlik kelinga munosabatda qanchalik bo`rtib ko`rinsa, qaynotaning ham kelinga munosabatidagi ustunlik shunchalik yaqqol ko`zga tashlanadi. Davr psixologiyasi butun hayotga o`z tamg`asini bosib boradi. Bu jarayonda milliy xarakterning o`ziga xos takrorlanmas qirralari namoyon bo`ladi. Yozuvchi buni chuqur idrok etadi. Shu boisdan ham qaynona va kelin o`rtasidagi munosabatlarni tasvirlab olib kiradi.

Bu qadimiy odatni oyoqosti qilgan o'zbek ayolining rahbarlik psixologiyasidagi barcha illatlarni uning psixologik tahlili orqali fosh qiladi. Romandagi Fotih Muzaffarov, Po'lat papka singarilar o'zlarining yashash va fikrlash tarzlari bilan Shorahim shovvoz va Shoqosim singarilarning mehnatsevarlik tuyg'ulariga zid harakat qiladilar. Shoqosim brigadirlik faoliyatida paxtadan oshirilgan majburiyatlar qabul qiladi.

Unga planni bajarish uchun qo'shib yozish yo'llarini tavsiya etadilar va shu yoo'l bilan ko'zbo'yamachilik va poraxo'rlik botqog'iga botirmoqchi bo'ladilar. Natijada, davr psixologiyasi yaratgan ikki kuch to'qnash keladi.

Davr psixologiyasi oilaviy muhitda ham o'z izlarini qoldiradi. Yozuvchi turmushdagi ana shu jarayonni chuqur idrok etadi va turmush haqiqatidan badiiy haqiqat yaratishda ustalik bilan foydalanadi. Aslida badiiy haqiqat, turmush haqiqatidan tug'iladi. U turmush haqiqatining quyuqlashtirilgan, saralangan oliy formasidir. Mehrinisoni rahbarlik lavozimi har maqomga yo'rg'alaydigan kuyga soladi. Turmushda Mehrinisoday ahvolga tushgan ayollar oz emas. Yozuvchi ana shu taxlitdagi materiallardan Mehriniso obrazini yaratadi. Unga davrga moslashish tuyg'usini baxsh etib ko'pgina rahbar ayollarni to'g'ri yo'ldan adashtiradigan lavozim ishtiyoqiga giriftor qiladi. Ana shunday davr psixologiyasidagi illatlar oilaviy qusurlarning kelib chiqishiga olib keladi.

Mehriniso rahbarlik lavozimiga ko'tarilgach, o'zini davrning ilg'or kishisi hisoblab erini ham Fotih Muzaffrovga qiyoslab madaniyatdan ortda qolgan kishi deb tushuna boshlaydi. Uning o'z davriga munosabatida ham cheklanganlik mavjud.

U ham yuqoridan berilgan buyruqlarni so'zsiz bajarish kerak deb tushunadi. Chunki bu buyruqlar tagida yashiringan ko'zbo'yamachilik illatlarini ko'rishga ojizlik qiladi. erining poklikni, haqiqatni jasurona himoya qilishni tushunmaydi, uning qadriga etmaydi. O'zini va Fotih Muzaffarovlarni davrning eng etuk kishisi deb hisoblaydi. Bunday adashish zahirida Mehriniso tipidagi juda ko'p o'zbek rahbar ayollarining umumlashtirilgan, individuallashtirilgan fojialari yotadi.

Nigora o'z oilaviy munosabatlarini kelin va qaynота – Mehriniso va shovvoz munosabatlari o'lchovida tortib ko'radi. Kelining nohaqliklarini idrok eta boshlaydi. Nigora o'z oilaviy munosabatlari vositasida yozuvchi milliy iftixor tuyg'ularini birinchi o'ringa qo'yadi. Nigora o'z oilaviy muhiti ta'sirida, zamonning psixologik ziddiyatlari girdobida yashaydi.

Bu obrazda ruhiy yangilanish kurtaklari ko'zga tashlanadi. Chunki, u tarixiy yodgorliklarning asl mohiyatini anglab etadi.

Davr psixologiyasidan tug'iladigan shaxs ruhiy olamida millatga xos bo'lgan turmushni haqqoniy ochib berish etakchi o'rinda turadi. Mehrinisoning individual qiyofasida va ijtimoiy faoliyatida o'ziga xoslik bor.

Romanda ana shu xarakter bilan bog'langan ijtimoiy-maishiy munosabatlar ishonarli chizilgan. Natijada uning ijtimoiy mansabiga hech bir aloqasi bo'lmagan qaynота va qaynonasining shaxsiy ishlariga ham aralashadi. Ularning oilaviy ishlarini, xarakterlarini nobop siyosat tarozisiga solib o'lchaydi. Bu davr psixologiyasidan tug'ilgan milliy rahbar qiyofasidagi turmush haqiqatlari edi. Mehrinisoning oilaviy munosabatlari, yashash va ishlash tarzi uning o'zini mas'ul xodima hisoblab, o'ziga daxldor bo'lmagan ishlarga ham aralashib yurishi psixologik dalillangan tasvir sifatida gavdalanadi.

Mehnat sharoiti taqozo etgan lavozimning buyruqqa itoat qildirish va usullarining barchasi tasvirini turmushdagidek quyuq bo'yoqlarda berishga olib kelgan. Oilaviy munosabatlar bilan mehnat faoliyati o'rtasidagi hayotiy bog'liqliklar psixologik vositalar bilan tinimsiz taqqoslab beriladi.

Ana shu o'rinlarda biz davr psixologiyasining xotin-qizlarga bergan erkin turmush tarzidagi nuqsonlarni ham ko'ra boramiz. Mehriniso xizmat taqozosiga ko'ra Fotih Muzaffarov bilan ko'proq birga bo'ladi. Yozuvchi ana shu milliy qiyofaga daxldor xarakterlarni keltirib chiqaruvchi yashash va mehnat sharoitlarini badiiy haqiqatga olib boradigan haqqoniy yo'l sifatida chizadi. Mehriniso jonli odam tarzida tasvirga olib kiriladi. Mehriniso obrazi bilan xotin-qizlardan chiqqan

rahbarlar an`anasidagi kemtik o`rinlarni, ayniqsa, axloqiy buzilish jarayonlarini badiiy haqiqat ko`zgusiga solib ko`rsatadi.

Yozuvchi turmushimizdagi bu illatlarni osonlikcha yo`qotib bo`lmasligini ocha boradi. Ana shu illatlarga qarshi kurashda kuchli va jozibali yangi an`analarni bunyodga keltirish bilan xotin-qizlar rahbarligidagi illatlarni siqib chiqarish mumkinligi to`g`risidagi turmush saboqlarini roman sahifalariga olib kiradi.

Mehriniso, yashash tarzi qanchalik erkin bo`lmasin, tarixiy taraqqiyot in`om etgan lavozim va mehnat sharoiti qanchalik yuqori bo`lmasin, u birinchi navbatda ayol. Shu boisdan ham o`z oilaviy baxtini boshqa oilaviy munosabatlar o`lchovi bilan tortib ko`rishga majbur. U birinchi navbatda qaynona va qaynotasi oilaviy munosabatlaridagi poklik va sadoqatlik qarshisida lol bo`lib qoladi.

U o`z lavozimi sifatida g`oyat mas`uliyatli vazifalarni bajarar ekan, paxta terimidagi nohaqliklarga duch kelib, yuragiga g`ulg`ula tushadi. “G`alaba nashidasi” deb nomlangan dabdabali haykallar ijodkorlari bilan solxoiz ishchilarining uchrashuvini uyushtirish jarayonida Mehrinisoning nigohi yangi yasalgan haykalga tushib, butun ruhiy olami ag`dar-to`ntar bo`ladi.

Mehriniso davr psixologiyasiga moslashishga qanchalik urinmasin, uning qalbida bosh ko`tarib vujudini larzaga keltira boshlagan insoniylik va sadoqat tuyg`ulari uni g`aflatdan xalos qilib oshkora bo`lmasa ham dilining tub-tubida Shorahim va Shoqosimlarning yo`lidan borayotganligiga imon keltirishga majbur qiladi.

Yozuvchi davr psixologiyasining tamg`asi bosilgan milliy psixologik turmush tarzini chizishda jonli lavhalardan o`rinli foydalan olgan. Avlodlarning go`zallikka bo`lgan munosabatlarini o`tkirlashtirishga sababchi bo`lgan har bir badiiy haqiqat – noyob kashfiyot darajasiga ko`tariladi.

Asardagi har bir obraz alohida bir mehr bilan yaratilgan. Hatto ularning nomlanishida ham katta ramziy ma`no zuhr etgan. Fotih Muzaffrov obrazini olib qaraydigan bo`lsak, Fotih – bosib olish, bo`ysundirish, Muzaffarov esa zafarlar qozonish ma`nolarini anglatadi. Bu ramziy nom yana bir bor ijtimoiy

munosabatlar psixologiyasi davrning rahbarlik lavozimidagi kishilarga cheklanmagan huquqlar in`om etganini ta`kidlaydi.

Ijtimoiy va ishlab chiqarish munosabatlaridagi o`zboshimchaliklar barcha ijtimoiy qatlamlar ongi va psixologiyasini zaharlaganini, shu sabab ularni pstdan turib, demokratik yo`li bilan cheklab qo`yish naqadar mushkul ekanligini yozuvchi Fotih Muzaffarov obrazining o`z qo`l ostidagilarga bo`lgan munosabatlar tasviriga singdirib yuborgan.

Shorahim shovvoz bilan Oysuluvning hayot yo`llari ham xalqimizning asl mehnatsevarligi, chidamliligi, turmushdagi bir-biriga sadoqati timsoli sifatida davr girdoblari orasidan olib o`tilib juda yaxshi ochib berilgan. Davrning noinsoniy psixologiyasi bilan kurash tasvirida Shorahim shovvozning o`g`li Shoqosim obrazi alohida o`rin tutadi. Shoqosim xarakteridagi adolat, sadoqat, fidoyilik kabi xislatlar o`sha davrning ibrat bo`lsa arzigulik ma`naviy yuksakligiga ko`taradi. Dastlab Mehriniso davr yaratgan dabdabali Fotihdan uni past qo`ysa ham, bora-bora o`z tuyg`ularida nohaq ekanligini tushunadi. Uni nopok yo`lga kirib ketishdan Shoqosimning jasorati saqlab qoladi.

Romanda davr psixologiyasining milliy individual psixologik qiyofalarga birikib borishi badiiy tadqiqot darajasiga ko`tarilgan. Yozuvchi o`z romanchiligi tajribasida, ayniqsa, “Er boshiga ish tushsa” romanidagi uch o`rtoq sarguzashtlarida davr ruhini ifoda etuvchi asar yaratishga intilib ko`rgan edi.

“Oqqushlar, oppoq qushlar” da ham o`zining ana shu ijodiy tajribasiga qayta murojaat qiladi. endi bu romanga uch o`rtoq sarguzatlarigina emas, balki jamiyatimizdagi uch oila qamroviga butun o`zbek xalqiga xos bo`lgan taraqqiyot ‘alqinlarini olib kirish ko`zga tashlanadi.

Shorahim shovvoz oilasi timolida bog`bonlik, dehqonchilik sohalariga xos davr ziddiyatlari ko`rsatiladi. Rasul Nuriddinov oilasi qamrovida esa o`zbek ziyolilari hayotida davr tug`dirgan ziddiyatlar singdirib yuborilgan.

Yozuvchining mahorati shundaki, u badiiy detalga joziba bag`ishlab uni davr ziddiyatlarining yog`dulari tushib turadigan fokusga aylantira oladi.

Romandagi Hazrat Ukkosha qabristoni detali syujetlar oqimini bir markazga yig`ib turuvchi kompozitsion markaz darajasiga ko`taradilar. Oysuluv bemorlikdan madad istab unga talpinsa, Rasul nuriddinovning Nigora ismli qizi arxeolog sifatida ko`hna dunyo merosini zamondoshlariga taqdim etish niyatida bu erga keladi.

Bu ajdodlar mozori davrning katta-kichik turli davrdlariga – jismoniy xastalikdan tortib ma`naviy xastaliklargacha – davo maskani sifatida talqin qilinadiki, bu talqinda juda katta ramziy ma`no yotadi. Bu kompozitsion markazda oilaviy ehtiyoj bilan davr ehtiyoji uyg`unlashtirib beriladi. Asarga Rasul Nuriddinov obrazining olib kiritilishini tabiiy hol deb tushunmoq kerak. Haqiqatan ham, Rasul Nuriddinov obrazi o`sha daarda shakllangan o`zbek ziyolilarining tipik vakilidir.

Lekin mana shu keng mushohadali olimning hayot haqidagi fikrlari bilan Muzaffar Farmonov hisoblashmaydi. Negaki, Farmonovlar hammani o`zining ortidan ergashtirishni ma`qul deb biladi. Biroq uch quroldoshning ham dunyoqarashlari boshqa-boshqa.

Yozuvchi turmush haqiqatidan badiiy haqiqat yaratar ekan, o`ziga xos milliy-psixologik turmush tajribasiga ega bo`lgan ota-onaning oilaviy munosabatlarini ibrat timsoli sifatida kashf etadi. Yosh oilalarni davr psixologiyasi bergan erkinliklar tuyg`usiga burilib ketib xato yo`llarga kirib ketishdan ogohlantiradi.

Xullas, Odil Yoqubov asarlarida shaxs va uning jamiyatda tutgna mavqei, jamiyatnnig shaxs psixologiyasi, taqdiridagi roli masalsi juda tran aks ettriladi va asosiy muammo ob`ektiga aylantiriladi.

XULOSA.

Odil Yoqubov asarlari o`ziga xos badiiy qimmatini hamda g`oyaviy teranligi bilan ajralib turadi. Ijodkor o`zbek romanchiligi taraqqiyotiga ulkan hissa qo`shgan yozuvchidir. Ayniqsa, o`zbek romanchiligidagi psixologizmning yuqoriroq darajaga ko`tarilishida uning o`ziga xos xizmatlari bor. Yozuvchi asardagi psixologizmning ma`lum sharoitida faoliyat ko`rsatadigan obrazning ruhiy kechinmalaridan tug`ilishini juda teran tahlil qiladi.

Ijodkorning «Ulug`bek xazinasini», «Ko`hna dunyo», «Diyonat», «Oq qushlar oppoq qushlar», «Adolat manzili» romanlari jamiyat va unda haraktlanayotgan insonning kechinmalari haqida batafsil bayonotlar beradi.

Adibning shoh asarlaridan bo`lgan «Ulug`bek xazinasini» romani o`zbek tarixiy romanchiligidagi katta bir voqea bo`lganligining sababi ham yozuvchi unda badiiy psixologizmning rang-barang ko`rinishlaridan foydalanganligi bilan izohlanadi. Qirq yil xalqqa baxt ato etib, tinchlik va osoyishtalikni saqlab, uning ma`naviy yuksalishida rahnamolik qilgan shaxs umr so`ngida turib o`z o`tmishini psixologik tahlildan o`tkazadi. Birinchi navbatda psixologizmning xayol, xotira, tush vositalari romanning g`oyaviy etukligini ta`minlashga xizmat qiladi va bu bejizga ham emas.

Ulug`bek xarakterida ilmiy e`tiqodga sadoqat bosh belgi sifatida tanlanadi. Agar shu e`tiqod bo`lmasa, butun roman hozirgi shakldagidek badiiylik kasb etmas edi. Umr bo`yi yaratilgan ilmiy xazinani kelajak avlodlar uchun asrab qolish tuyg`usi Ulug`bekning barcha fojialariga sababchi bo`ladi. O`z o`g`lini ana shu ilmiy xazinaning yo`qolishi uchun sababchi bo`lishi mumkin deb tushunmaganda, u bilan saltanatni asrab qolish tiyatida jangga kirishmagan bo`lardir. Asarda keng ko`lamda tasvirlangan psixologik sharoit ham ana o`sha xazina – ilmlar xazinasini bilan bevosita bog`liq. Ulug`bek ruhiy olamida Amir Temur yurishlari jonlanib

ikki xil xazinaning: birinchisi, oltin javohirlar xazinasining, ikkinchisi turli xalqlarga doir nodir kitoblar – ilamlar xazinasining bir joyga yig'ilganligi anglashiladi. Ulug'bek taxtga chiqar ekan, ikkinchi xazinaga alohida mehr qo'yadi.

Dunyo olimlari Ulug'bek faoliyati bilan nechog'li qiziqishadi. Juda ko'p mamlakatlardan olim-u ulamolarni, ularning asarlarini oldirib kelib uni o'zbek xalqining mulkiga aylantirishga jazm etadi. O'zi ham o'zbek xalqini jahonga tanitadigan ma'naviy xazina yaratishga bel bog'laydi. Buning uchun u bolaligidayoq bobosi Amir Temur yaratgan imkoniyatlardan foydalanib bilimga butun borlig'i bilan sho'ng'iydi. U o'zidan oldin o'tgan olimlarning ishlarini ixlos bilan o'rganadi. Yozuvchi mana shu tarixiy haqiqatni e'tibordan qochirmaydi. Agar yozuvchi goh Rumiidek, ustozlar muhitida bilimdan qoniqish, goh Ali Qushchidek shogirdlar qurshovidagi ishlash jarayonlarini Ulug'bekning xayol xotirasida jonlagtirilmaganda edi, ruhiy dunyosi boy munajjim va davlat arbobi obrazini yuzaga kelmas edi. Adib shunday bir vaziyat yaratadiki, tarixiy taraqqiyot mahsuli bo'lgan ana shu psixologik yuksaklikdan turib bosh qahramon o'z o'tmishini tahlil qiladi. Ruhiy tahlildagi eng qimmatbaho jihatlar – qirq yil davomida mamlakatga tinchlik-osoyishtalik baxsh etish, kanallar qazdirib, madrasalar qurdirib, elu yurtni farovon va bilim-ma'rifatli qilishga qat'iy bel bog'lash uning tarixiy xazmatlari sifatida ochib beriladi.

Psixologik tahlil imkoniyatlari o'laroq jahon shohlarining, umuman shohlikning insoniyat boshiga kulfat keltirgan fojialari bir-bir nazardan o'tkaziladi. Shu o'rinlarda Ulug'bek siymosi buyuk mutafakkir yuksakligiga ko'tariladi. U shogirdi Ali Qushchiga hukmdorlikning mehnatkash xalq manfaati yo'lida yaxshiroq xizmat qilish uchun bir vosita ekanini yurak to'la dard bilan izhor qiladi.

Inson shaxsini hurmat qilish, unga munosabatda bag'rikenglikka amal qilish Ulug'bek uchun xos ekanligi romanda juda ko'p epizodlar misolida badiiy jonlantirilib beriladi. Qolaversa, xalq manfaati, kelajak avlodlar manqaati Ulug'bek ruhiy olami uchun juda qimmatli toshu turozi vazifasini o'taydi. Ana shu e'tiqod

o`z davridan o`zib ketgan buyuk tarixiy shaxsning siymosini yaratishda yetakchi belgi bo`lib xizmat qiladi. Ko`rinadiki, psixologizm badiiy asarning g`oyaviy etukligini ta`minlashda san`atning o`z tug`ma belgisi tarzida namoyon bo`ladi. Shohlik o`z ilmiy iqtidorini dunyoga namoyon etish, ilm-fanni taraqqiy ettirish uchun zarurligini Ulug`bek chuqur idrok etadi. Binobarin, toju taxtdan ilmni afzal ko`rgan bu mutafakkir istasa-istamasa saltanatni asrab qolish haqida ham qayg`urishga majbur. Shuning uchun ham u ruhan qiynaladi.

Ijodkor shoh va olim Ulug`bekning o`ziga xos psixologik xususiyatlari sifatida ma`rifatparvarlik, jasurlik, hukmdorlik fazilatlarini alohida mehr bilan yoritadi. U o`z umri davomida jvonlarga ilm xazinasini to`plash bilan birga, ayni paytda qo`l ostidagi mehnatkashlarning ham bilim olishga burchdor ekanini hayotga singdirish uchun ham tinimsiz kurash olib boradi. Mana shu jarayonda o`z raqiblari bo`lmish – jaholat tarafdorlari bilan ziddiyatga kirishadi. Ulug`bek shaxsiga daxldor bo`lgan psixologik holatlardan jasurlik va bilimdonlik diniy sud yig`inida yaqqol ko`zga tashlanadi. “Ulug`bek xazinasini” romanidagi Abdullatif xarakteri bosh qahramon salobatini oshirish, ruhiy fazilatlarini yanada bo`rttirib ko`rsatish uchun xizmat qiladi. Agar Ulug`bek qirq yil davomida mamlakatni boshqargan bo`lsa, turmush ziddiyatlari orasidan yo`l topib yashagan bo`lsa. Abdulatif bor-yo`g`i olti oygina hukmronlik qiladi, xolos.

Otasiga butunlay zid ravishda Abdulatif ruhiy olamida esa davrning yovuz kuchlaridan aldangan, noto`g`ri tarbiyaning qurboni bo`lgan, qiblagohi bo`lgan otasining yo`l-yo`riqlarini qabul qilmay fojiaga uchragan shahzodaning ruhiy olamidagi tipi yaratilgandir. Romandagi ana shu ikki shoh ruhiy olamidagi turmush haqiqati kashfiyoti bilan birga, Ali Qushchi, Qalandar qarqoniy, usta Temur Samarqandiy, Qoplonbek, Bosqonbeklar, Mansur Klshiy, Miram Chalabiy singari mehnatkash xalq vakillarining ham ruhiy olami ochib beriladi. Xullas, psixologik tahlil sharofati bilan roman noyob durdona darajasiga ko`tariladi.

Odil Yoqubov “Ulug`bek xazinasini” romanida hissiyotlar oqimini tahlil qilish yo`lidan borib, tarixiy taraqqiyotni ham, turmush ziddiyatlarini ham

hissiyotlar ko'zgusida jilolantiradi. Bu Ulug'bek, Abdulatif xarakterigagina emas, balki salbiy va ijobiy xarakterlar ruhiy olami tasviriga ham daxldordir. Chunonchi, mavlono Muhiddin ruhiy olamida ustozga va ilm-ma'rifatga xiyonat qilgan shogirdning fojialari ochib berilgan bo'lsa, amir Jondor ruhiy olamida adolatparvar va xalqparvar shohga xoinlik qilib Abdullatifga sotilgan amaldorning o'z qilmishlariga tavba - tazarru, afsus - nadomat bilan yondashishlari ochib beriladi. Hattoki, Qalandar Qarqoniy va Qashqir ruhiy olamida, siyosiy hokimiyatga intilish qabohatlari butun qabihliklari bilan yoritiladi.

Asarda xronikal syujet bilan retrospektiv syujetning uyg'unlashuvi qisqa vaqt – saltanatning Ulug'bek qo'lidan ketish onlari tasviri bilangina chegaralanib qolmasdan, Ulug'bekning butun umri tahlilini badiiy tasvirga olib kirish imkonini beradi. Syujetning bu ikki tipi uchinchi bir syujet tipi kontsentrik, ya'ni tasvirlanayotgan voqealar o'rtasidagi sabab-oqibat bog'liqliklarini syujet tipi bilan chatishib yuksak san'at asarining yaratilishiga zamin hozirladi. Demak, psixologizmning analitik prinsipi badiiy shakl yaratishda hech narsa bilan almashtirib bo'lmaydigan o'ziga xos badiiy tasvir usuli ekan. Ko'rinadiki, mazkur romanda tasvir shaklni monandlashtiruvchi zanjir sifatida chinakam san'at asarining yaratilishiga keng imkoniyatlar tug'diruvchi badiiy uslub rolini bajaradi.

Odil Yoqubovning "Diyonat" romanida esa boshqa bir davr – o'zbek xalqi taqdiridagi buyuk burilish davri qalamga olinadi. Zamon tarbiyalab voyaga etkazgan Otaqo'zi Umarovning bosh qahramon sifatida tasvirlanishi romanning kompozitsion – syujet markazi sifatida barcha epizodlarni, taqdirhlarni birlashtirib turadi. Bosh qahramon tasvirida ham "Ulug'bek xazinasini"da bo'lgani kabi dastlab psixologizmning analitik prinsipi qo'l keladi. Otaqo'zi tushgan vaziyat ham, faoliyat ko'rsatgan voqelik ham qadam-baqadam o'z faoliyatini psixologik tahlildan o'tkazishni taqozo etadi. Demak, hissiyotlarni tahlil etuvchi analitik prinsip yozuvchining badiiy haqiqatga sadoqatini, davrning kamarbasta solnomachisi ekanini ko'rsatuvchi va uning davr taqdim etgan qahramonni butun salobati bilan tasvirlay olishga xizmat qiluvchi badiiy prinsip ekan.

Odil Yoqubov romanlarida o'zbek xalqini jahonga tanitgan, martabasini yuksaltirgan, qadr-qimmatini ta'minlagan barcha insoniy fazilatlar qadimiy shon-shuhratli xalqimizning aziz farzandlari ruhiy olami tasviri orqali takrorlanmas darajada ochib berilgandir.

Ijodkorning «Oq qushlar oppoq qushlar» romanida imkoniyatlari boy berilgan davr g'oyalari bilan qayta qurish davri g'oyalarining kelishtirib bo'lmaydigan ziddiyatlarga boy jarayonlari psixologik tahlilga olinadi. Romanda uchta iyrik ijtimoiy tabaqaning psixologiyasi tahlildan o'tkaziladi. Shorahim shovvoz oilasi taqdirining psixoanalizi jarayonida jamiyatga buun borilg'in baxsh etgan va atijada o'z fojialariga giriftor bo'lishga mahkum bo'lib qolgan shaxsning fojialari yaratiladi. Shorahim shovvoz o'z bog'i bilan tirik edi. Uning ruhiyatida kasbga bo'lgan e'tiqod ustun turadi. Turmush o'rtog'i Oysuluv timsolida esa o'zbek ayolining tipik orazi gavdalantiriladi.

Oysuluv tashqi qiyofasidan tortib o'y-kechimlarigacha to'la o'zbekona xususitlarni o'zida jamlagan qahramon. U oila butunligini, turmush o'rtog'ining halovatini, farzandlarining kamolini deb barcha qiyinchiliklarni o'z elkasiga oladi. Og'ibatda esa sog'lig'idan ayrilib, nochor ahvolga tushib qolganida Shorahim shovvoznig ko'zi ochiladi. Bir umr suyanchiq bo'lgan insoniga mehr-muhabbat ko'rsata olmaganidan qattiq kuyinadi.

Juda asosli psixologik holatlar tasviri bilan boshlangan roman voqealari davomida yozuvchi Shorahim, Shoqosim va uning xotini Mehriniso, Rasul Nuriddinov, Fotih Muzaffarov va Muzaffar Farmonovlar xarakterlarini, ularning ruhiy kechinmalarini, fikr-o'ylari oqimini o'ziga xos psixologik mahorat bilan tasivrlashga erishadi.

Xullas, Odil Yoqubov yaratgan xarakterlar o'zbek romanchiligida shaxs va jamiyat munosabtlarining naqadar aloqadorligini ko'rsatib urvchi, bu jaayonda badiiy psixologizmnig salmog'ini namoyish etuvchi asarlar sifatida katta g'oyaviy-badiiy qimmatga egadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI

I Ilmiy-metodologik adabiyotlar

1. Каримов И.А. Асарлар. Т. 10. Хавфсизлик ва тинчлик учун курашмоқ керак. – Т.: Ўзбекистон, 2002. – 429 б.
2. Каримов И.А. Асарлар. Т. 11. Биз танлаган йўл – демократик тараққиёт ва маърифий дунё билан ҳамкорлик йўли. – Т.: Ўзбекистон, 2003. – 320 б.
3. Каримов И.А. Асарлар. Т.12. Тинчлик ва хавфсизлигимиз ўз куч кудратимизга, ҳамжихатлигимиз ва қатъий иродамизга боғлиқ. – Т.: Ўзбекистон, 2004. – 398 б.
4. Каримов И.А. Асарлар. Т. 13. Ўзбек халқи ҳеч қачон, ҳеч кимга қарам бўлмайди. – Т.: Ўзбекистон, 2005. – 445 б.

II Ilmiy risola, o`quv qo`llanma, darsliklar

1. Адабиёт назарияси. I том. – Т.: Фан, 1978, 416 б; II том. – Т.: Фан, 1979, - 448 б.
2. Белинский В.Г. Танланган асарлар, Тошкент, Ўзбекистон Давлат нашриёти. 1955. -399 б.
3. Белинский В.Г. Замонамиз қаҳрамони. М.Ю.Лермонтов асарлари // Танланган асарлар. Т.: Ўздавнашр. 1955, 16-б.
4. Ёқубов Ҳ. Адибнинг маҳорати. -Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1966. - 310 б.
5. Каримов Э.Ёзма адабиётнинг эпик жанрлари. // Адабиёт назарияси. 2-том. Т: 1979. 207-234-б.

6. Мамажонов С. Сайланма. Т: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1981. -534 б.
7. Мирвалиев С. Ўзбек романи. -Т.: Фан, 1969. – 313 б.
8. Норматов У. Насримиз анъаналари. Т: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1978.
9. Носиров Ў. Образларда услуб жилolari. -Т.: Фан, 1991. -196 б.
10. Султонов И. Ёзувчи услубига доир. –Т.: Фан, 1973. -116 б.
11. Султонова М. Пейзаж санъати. Т: Фан, 1983. -215 б.
12. Тимофеев Л.И. Основк теория литературк. – М.: Просвеёние, 1971, с. 464.
13. Тоғаев О. Идрок ва ижод. Т: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1982. -327 б.
14. Умуров Ҳ. Ўзбек романчилигида бадий психологизм. Ўқитувчи. 1982. -176 б.
15. Шермухамедов П. Давр қахрамон тақдирида. Т: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1976. -387 б.
16. Шарофиддинов О. Истеъдод жилolari. Т.: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1976. -426 б.
17. Шермухамедов П. Истиқболни ўйлаб. Т: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1987. -423 б.
18. Юнусов М. Традиция ва новаторлик проблемаси. -Т.: Фан, 1965. -209 б.
19. Қулжонов А. Замонавийлик ва ижодий метод. Т: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1976. -425 б.
20. Қўшжонов М. Ҳаёт ва маҳорат. Т: ЎзР бадий адабиёт нашриёти. 1962. -342 б.

21. Қўшжонов М. Қалб ва қиёфа. Т: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1978. -245 б.
22. Қўшжонов М. Қайта қуриш ва ўзбек романи // Шарқ юлдузи. 1988. 1-сон. 167-177-б.
23. Қўшжонов М. Сайланма -Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1983. - 384 б.
24. Қўшжонов М. Энг муҳим инсонпарварлик: Ўзбекистоннинг миллий истиқлол мафкураси. - Т.: Ўзбекистон, 1993. - 103 б.

III Lug'atlar

1. Краткая литературная энциклопедия. Т.8 –М.: Советская энциклопедия. 1972. С.961.
2. Литературный энциклопедический словарь. –М.: Советская энциклопедия. 1987. С.516.

IV Ilmiy maqolalar

1. Ёкубов Ҳ.И. Изчил гуманизм учун // Шарқ юлдузи. 1982. 159-162-б.
2. Отаев Р. Қиссада инсон қисмати //Катта йўл бошида. -Т., 1987. -Б.57-68.
3. Расулов А. Умри уволлар қиссаси// Шарқ юлдузи. - 1999. - №6. -Б. 149-153.
4. Худойбергенов Н. Умри узоқ бўлсин // Шарқ юлдузи. 1982. №1. 179-182 б.
5. Ўтаев Ў. Ижодкорнинг бош манбаи – ҳаёт // Ўзбекистон Халқ ёзувчиси Одил Ёкубов билан суҳбат. “Шарқ юлдузи”. Т: 1987. 157-б.
6. Қаршибоев М. Рухнинг мангу кўнғироғи //Камалак (Адабий-танқидий йиллик тўплам). -Т., 1990. -Б. 155- 179.

7. Қодиров П. Тил, тарих, муҳаббат... // Ёшлик. – 1989. - № 5. – Б. 2, 40-42.
8. Қўшжонов М. Қайта қуриш ва ўзбек романи // Шарқ юлдузи. 1988. 1-сон. 167-177-б.

V Dissertatsiya va avtoreferatlar

1. Рахимов А. Ўзбек романи поэтикаси (сюжет ва конфликт): Филол. фанлари док. ... дис, -Тошкент, 1993.
2. Қурбонов Т. Одил Ёқубовнинг портрет яратиш маҳорати. / Фил. Фан. номзоди дисс. автореф. Т., 1997.

VI Badiiy adabiyotlar

1. Ёқубов О. Кўҳна дунё. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1986. – 512.
2. Ёқубов О. Диёнат. – Т.: «Шарқ», 1998. – 352 б.
3. Ёқубов О. Улуғбек хазинаси. Т.: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1986. 4-5-б.
4. Ёқубов О. Ларза. -Т.: Ўздавнашр, 1962. -237 б.
5. Ёқубов О. Излайман. -Т.: Ўзадабийнашр, 1972. - 252 б.
6. Ёқубов О. Муқаддас. -Т.: Ўздавнашр, 1960. - 141 б.
7. Ёқубов О. Тилла узук: Қисса ва ҳикоялар. -Т.: Ўздавнашр, 1961. -143 б.

